

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

*“Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar
metodikasi” kafedrası*

**Mavzu: Odobnoma darslarida interfaol metodlar asosida
noan'anaviy darslarni tashkil etish metodikasi**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

**Magistrant: 2-bosqich talabasi M. Y. Yo`ldosheva
Ilmiy rahbar: p.f.d.prof. J.G'. Yo`ldoshev**

TOSHKENT – 2010

MUNDARIJA

Kirish.

I bob. Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.

I. 1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.

I. 2. Boshlang'ich sinfda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llash afzalliklari.

Birinchi bob xulosasi.

II bob. Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida interfaol metodlarini qo'llanish shakllari.

II. 1. Odobnoma darslari jarayonida o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish texnologiyalari.

II. 2. Noan'anaviy odobnoma darslarida interfaol metodlarining qo'llanish shakllari.

II. 3. Tajriba – sinov ishlari.

Ikkinchi bob xulosasi.

Umumiy xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH.

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz" hamda Vazirlar mahkamasining 2010-yil 29-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" mavzularidagi ma'ruzalari mazmun-mohiyati va undagi xulosalarni o'rganish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 2010 yil 23 fevraldagi 101-F – sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimizdagi kun tartibidagi bosh masalalardan biridir¹.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida " . . . mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz" degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi g'ayb qaydalanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida xis etilishi zaruriyati mavjuddir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarda ".... ta'lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogic texnologiyalarni, electron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va Oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash

¹ I.A.Karimov "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimiz" O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Adolat gazetasi Toshkent 2010 yil 29 yanvar. N 4 1-3-betlar

samarali tizimini yanada rivojlantirish” ko`zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir².

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar

davlatimizning oldiga ta`lim tizimini rivojlantirish bilan bog`liq muhim masalani qo`ydi. Ijtimoiy hayot tubdan o`zgargan bir sharoitda ta`limning yangi texnologiyalari va usullarini qo`llash asosida bu tizimni jadal rivojlantirish talab etiladi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta`lim tizimini tubdan isloh qilish uni rivojlantirishning strategik yo`nalishlarini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib xujjatda shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub`ektiv va ob`ektiv sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshiralayotgan o`zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi. Savol tug`iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo`ladi? Qachonki, u jismonan sog`lom, vijdonan pok, ma`naviyati yuksak bo`lsa. Bunda o`sb kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta`lim-tarbiyaning o`rni beqiyosdir. Shu o`rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu gaplarini keltirib otishni o`rinli deb topdim: “Ma`naviyatni shakllantirishga bevosita ta`sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta`lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog`liqdir... Shuni unutmashligimis kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarimizning bugun qanday ta`lim va tarbiya olishiga bog`liq...”. /I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asari “Ma`naviyat” 2008. 60-61-bet.

Bizning asosiy maqsadimiz ta`lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta`lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi

² “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. O`zbekiston Respublikasi prezidentining Qarori. Adolat gazetasi. Toshkent 2010 yil .29 yanvar N 4. 1-2 betlar.

hamda o`zlashtira olishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun shaxsni ma'naviy-

ahloqiy tarbiyalashga shakl va metodlarini ishlab chiqish, ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, xususan boshlang`ich ta'lim sifati, ularning madaniy va ma'naviy-axloqiy darajalariga talabni oshirish o`quv-tarbiya jarayonini eng yangi o`quv-metodik to`plamlar, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to`la ta'minlash zarur. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz ham aynan shu eng ilg`or pedagogik texnologiyalarini ta'lim tizimida, xususan, boshlang`ich ta'lim odobnoma darslarida tadbiiq etishning metod, uslub va shakllarini nazariy tomondan asoslab berish hamda samarali natijalarga erishishdan iborat.

Qachonki, biz ta'lim jarayonini to`g`ri tashkil etar ekanmiz, shundagina har bir inson, ayniqsa voyaga yetib kelayotgan yosh avlod yetuk shaxsga aylanib ijtimoiy vazifasini o`zlashtirish, ijtimoiy roli, mavqei, imkoniyatlarini to`liq anglab yetadi, jamiyatning boshqa a`zolari bilan erkin, mustaqil munosabatda bo`ladi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya asosida rivojlanib borayotgan yo`nalishlardan biri – bu zamonaviy texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llashning dolzarb vazifasiga aylangandir. Jumladan, boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanib, yangicha bilim va tajribalarni o`sib kelayotgan yosh avlodga o`rgatish pedagog - o`qituvchilar zimmasiga katta ma`suliyat yuklaydi.

Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonida qo`llanishining yangicha usullarini amaliyotga tadbiiq etishda respublikamizning yirik pedagog olimlari; professor R.A. Mavlonova, professor J.G`. Yo`ldoshev, professor M.Ochilov, professor N.Sayidahmedov, professor U.Tolipovlar tomonidan ko`plab o`quv qo`llanma va darsliklar yaratilgan. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan o`quv qo`llanma va darsliklardan foydalanib, boshlang`ich sinflarda odobnoma darslarini noan'anaviy shakllarini tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Shu bois men magistrlik dissertatsiyasida boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish shakllari va metodlarini o`rganishni o`z oldimga maqsad qilib qo`ydim.

Tadqiqot ishi maqsadi - boshlang`ich sinf odobnoma darslarida interfaol metodlarini noan'anaviy darslarda qo`llanishning samarali usullarini o`rganish va uni amaliyotga tadbiq etish.

Tadqiqot ishi ob'yekti - boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot ishi predmeti - boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakl, vositalari.

Tadqiqot ishining vazifalari:

Ta'lim texnologiyalarining turlarini o`rganish.

Odobnoma darslarining tashkil etishni o`rganish, tashkil qilish.

Pedagogik texnologiyalar asosida odobnoma darslarini tashkil etishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Odobnoma darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishi ikki bob, besh fasl, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlarining qo`llanish usul va vositalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining metodi – mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o`rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, yozma-og`zaki so`rovlar.

Tadqiqotning metodologik asoslari: Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g`oyalar O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi Qonuni va " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ta'lim sohasiga oid me'yoriy xujjatlari.

I Bob. Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik

texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.

I.1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro'yobga chiqarishning hozirgi bosqichida ko'zda tutilgan yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishning samarali shakl va usullarini amaliyotga keng joriy qilish talab etiladi.

O'quvchini mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash, himoya qilish, siyosiy-huquqiy ongini oshirish, odobnoma fanini o'qitishning sifat-samaradorligini oshirish borasida Vazirlar Mahkamasining bir qator ko'rsatmalari asosida Xalq ta'limi vazirligi odobnoma o'qitishning yangi texnologiyasini qo'llash masalalarini mutaxassislar oldiga qo'ydi. Bu borada qator ilmiy tadqiqotlar, maqola va qo'llanmalar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov 1998 yil 23 yanvar kuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish Respublika komissiyasining majlisidagi nutqida shunday fikrlarni o'rtaga tashladi: «O'zbekiston yoshlari modomiki, islohotlarning samarali muayyan darajada ularning qanday inson bo'lib yetishishiga bog'liq ekan, milliy ma'naviyat, qadriyatlar, ota-bobolarimiz merosiga hurmat uyg'otadigan, milliy g'urur va iftixorimizni yuksaltiradigan, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlaydigan dasturlar asosida tahsil olishi, tarbiya ko'rish lozim».

Ana shu vazifalarni bajarish maqsadida ta'lim tizimida davrga mos yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilmog'i darkor.

Shunday savol tug'iladi: Pedagogik texnologiya degani o'zi nima? Grekchada «texno» — san'at va «logos» — tushuncha, bilim ma'nosini anglatadi. Yangi texnologiya deganda biz ta'lim jarayonlarini amalga oshirish vositalari va yo'llari haqidagi bilimlar yig'indisini nazarda tutamiz.

Pedagogik texnologiya metodika tushunchasidan ancha keng ma'noni anglatadi. Agar metodika, metodik-usul asosan o'qituvchining faoliyatini aks ettirib o'qituvchiga

qaratilgan bo'lsa, pedagogik texnologiya o'qituvchi faoliyatini qamrab olishi bilan birga, asosan o'quvchilarga qaratiladi, o'quv faoliyatlarini jadallashtirishni ko'zda tutadi.

Demak, pedagogik texnologiyalarning asosiy ma'nosi o'quvchilar o'zlashtirishini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini oldindan loyihalashdan iborat. Albatta, u yoki bu pedagogik texnologiyalarni tanlash ta'lim maqsadiga, o'quvchilarda birim, iqtidor va ko'nikmalar shakllanganlik darajasiga va o'qituvchilar mohirligiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, yangi pedagogik texnologiya — o'qitishning yangicha usuli bo'lib, ta'lim va chuqur bilim berishga, ularni mustahkamlashga, bilimdonligini oshirishga qaratilgan jarayondir.

Odobnoma darslarida yangi pedagogik texnologiyaning mazmuni, mohiyati, ta'rifi haqidagi qarashlar olimlar tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Ishlab chiqarish texnologiyasi — tushunchasi «xomashyo» ishlab berish jarayoni va uni baholash. Agar shu ma'noda yondoshsak:

1. Ta'lim yo'riqnomasi, standarti va dasturi asosida ta'lim mazmunini ishlab chiqish.
2. O'quv matnini tanlash.
3. Tanlangan matnni o'quvchilarga yetkaza bilish va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyadagi asosiy elementlar ta'lim nazariyasiga suyanagan holda:

- a) o'quv materialini tanlash;
- b) o'quv qo'llanma-darslik tayyorlash va baholash;
- d) ta'lim metod va usullarini tanlash, ta'lim oluvchilarni baholash.

Shu tariqa dastlab pedagogik texnologiyaga keng ta'rif berish ilmiy izlanishni talab etadi. Olimlar Sh. Nuriddinov, A. Abdujabborov fikricha pedagogik texnologiya:

1. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash.
2. O'quv materialini yangicha talqin etish.
3. O'qitishda yangi informatsion texnologiyani kiritish.

Buni amalga oshirishda:

1. Ijtimoiy muhit — jamiyat talabiga muvofiq ta'lim nazariyasi yangi qoidalari asosida o'quvchilar aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish.

2. O'qituvchi-tarbiyachilarning savodxonlik darajasi, san'at va mahorati.
3. O'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligi.

Bu borada olimlarning turlicha qarashlari mavjud.

Yapon olimlari pedagogik texnologiyaga o'qitishni ta'minlovchi oqilona yo'l deb baho bersalar, professor X. Abdulkarimov esa bunga «o'qituvchining pedagogik mahorati» deb qaraydi.

Odobnoma o'qitishda o'qituvchi mahoratiing asosiy tamoyillari:

1. Muomala.
2. Adolat bilan ish tutish.
3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Odobnoma darslari ijodiy, noan'anaviy: suhbat, o'yin, oilada, tabiatda, bahs, munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Odobnoma darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanganda nimalarga e'tibor beriladi:

- a) darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
- b) pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
- d) pedagogik texnologiya jarayonidagi didaktik qoidalar;
- e) o'qituvchining mahorat texnikasi. Pedagogik texnologiyani qo'llashda

o'qituvchi-tarbiyachi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik — tarbiya-ta'lim amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.
2. Ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish. O'quv dasturlariga ham befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o'rganib borish.
4. O'quv jarayonida o'quvchi bilan o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.
5. Ilmiylik — yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.
6. Buning uchun bolalarni dastur mavzulari asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.

7. Ilg'or tajribalarga suyanish.

8. Dars maqsadining aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitishni, o'quvchini mustaqil faoliyati, darsda "Xalq og'zaki ijodi" rubrikasida: maqol, matal, ertaklardan o'rinli foydalanish, o'yin, test savollari. Ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi odobnomani o'rgatishda nazariy chuqur bilimga ega bo'lishi zarur.

Xullas, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak".

Darhaqiqat, odob-axloqimizni ham tarixiy voqealarsiz o'rganish mumkin emas.

Demak, 1-, 2-, 3-, 4-sinflardagi darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

1. O'yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarida, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyligi va zamonaviyligi bilan odob-axloq tushunchalarni tarbiyalashga qaratilishi.

2. O'quv mashg'ulotini rang-barang usullar: audio, video, ko'rgazmalilik, jonli so'z ta'sirida tashkil etish.

3. O'qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo'lishi va ijodkorligi.

Shu maqsadda keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida "Ta'lim texnologiyasi", "Pedagogik texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llanilmoqda, ularning sifat va xususiyatlari haqida ham turli fikr-mulohazalar hamda munosabatlar bildirilmoqda. Savol tug'iladi, pedagogik texnologiya nima uchun zarur bo'lib qoldi, uning o'zi nima, qachondan o'quv jarayoniga kirib keldi, pedagogik texnologiyaning predmeti nimadan iborat, qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, jarayoni, vositalari mavjud, uning monitoringi qanday tashkil etiladi, ilgarigi o'qitish uslublaridan farqi nimada, uni har bir o'qituvchi o'z faoliyatiga olib kira oladimi?. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A. Karimovning "Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samaradorligi past bo'lishi muqarrar..." degan so'zlarini yodga olishni lozim topdik. Chunki, biz fikr yuritayotgan

pedagogik texnologiyalarining ta'lim jarayoniga samarali tadbiriq etilishi o'quvchilarning erkin fikrlashiga, ularning ijodkorligini oshishiga olib keluvchi muhim omil sanaladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishidagi jiddiy yo'nalishlardan bo'lgan ta'lim standartlari, o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar va boshqa vositalar ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, ya'ni puxta bilim berishga, yuqori sifat o'zlashtirishiga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchining malakasiga, ijodkorligiga pedagogik mahoratiga faoliyatiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Ta'lim - tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishiga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullana bilish, mustaqil fikrlay olish va tafakkur faoliyati bilan bog'liq.

Ma'lumki, har qanday ta'lim-tarbiya jarayoni hamda pedagogik texnologiyalar didaktika fani tomonidan tahlil qilinadigan o'rganish va o'rgatish jarayonlaridan hamda perovard natijadan iborat.

Pedagogik texnologiya turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Jumladan, dastlab o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishi, texnika vositalari yordamida o'qitish, dasturlashtirilgan ta'lim, loyihalashtirilgan ta'lim tushunilgan.

Hozirgi paytda pedagogik texnologiyaga:

-kompyuter va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash:

-ta'lim jarayonining tashkiliy vositalardan iboratligi:

-o'qitishga o'ziga xos ilmiy asoslangan innovatsion yondashuv:

-barkamol innsoni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asosi:

-o'quvchini mustaqil mutolaa qilishga, bilim olishga, erkin fikrlay olishga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayon hisoblanmoqda.

Ta'lim texnologiyasi jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Biz o'qituvchi va o'quvchini fikrlashga, ijodkorlikka

undovchi pedagogik texnologiyaga berilgan aniq ta'rif va tushunchalarni keltirib o'tmoqchimiz :

Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir nazariya o'zining metodologik asoslariga ega bo'ladi. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining ilk g'oyalari ilgari surilgan davrlardayoq mazkur nazariyaning asoslari ham yaratila boshlangan. Ta'lim texnologiyasining umumiy asoslarini uning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tamoyillari, ob'yektiv hamda sub'yektiv omillari, me'zonlari va boshqalar tashkil etadi. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari mohiyati xususida so'z yuritish uchun "ta'lim texnologiyasi" tushunchasining tub ma'nosini anglash talab etiladi.

"Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "Techne" - mahorat, san'at, hamda "Logos" - tushuncha, ta'limot so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi esa lug'aviy jihatdan ta'lim {o'qitish} jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan ma'nosini anglatadi.

Alohida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "Pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi, hamda asosiy diqqatni o'quv pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Falizina esa pedagogik texnologiyaning "fan va amaliyot oraliq'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan" bo'lishi lozimligini qayd etadi. U fan va amaliyot oraliq'idagi tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiqaruvchi ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi - alohida fan bo'lishi kerakligini aytib, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi deb ta'kidlaydi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oraliq'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texnikalashtirishni taqazo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyada ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tadbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillarda Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi.

Texnologik yondashuvlar tahlilidan aksariyat o'qitish texnologiyalari bosh va ochiq-ravshan emasligi ma'lum bo'ladi. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadbiq etish o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-tadqiqotchilar, didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

"Pedagogik texnologiya - psixologik-pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogic jarayonning tashkiliy metodik omilini ham bildiradi."
{ B. Lihachev }

"Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan o'qitish natijalarga erishish jarayoni tavsifi "
{ I.P.Volkov }

"Texnologiya - ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mohiyati, malakasi va metodlar yig'indisi"
{ V.M.Shepel }

"Pedagogik texnologiya - talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha pedagogik faoliyatning har tomonlama o'ylangan modelidir"

{ V.M.Manahov }

"Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va belgilashning izchil metodidir"

{ YUNESKO }

"Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildaradi"

{ M.V.Klarin }

"Pedagogik texnologiya - o'zida turli mualliflar {manbalar}ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi"

{ T.K.Selevko }

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tadbiiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarashning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo'lishi, uning moslashuvchanligi hamda o'quvchining xususiyatlari ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variantuvligi, o'quvchi hatti - harakatlarining bosqichlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida o'quvchining intellektual va ematsional - motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z - o'zini anglash va mustaqilligini shakillantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida ahloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishni ta'minlaydi, axloqli insongina ta'limni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda "Pedagogik texnologiya" tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek, asosiy e'tiborni faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.


O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart - sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagog olim V.R.Vespaliko pedagogik tizimning pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etib, uni quyidagi unsurlardan iborat deya ta'kidlaydi:

1. o'quvchi;
2. ta'lim – tarbiyaning maqsadi;
3. ta'lim – tarbiya mazmuni;
4. o'quv jarayoni;
5. o'qituvchi yoki texnik vositalar;
6. ta'lim – tarbiyaning tashkiliy shakllari.

Pedagogik texnologiyaning quyidagi tarkibiy unsurlari uning asosini belgilashga xizmat qiladi:



Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy harakterdagi, shuningdek, ta'lim – tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya – shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim – tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat yuritayotgan ta'lim –

tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart – sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim – tarbiya va shaxs taraqqiyoti birligini ifoda etadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning nazariy (asosiy) asoslari umumpedagogik, xususiy – metodik hamda lokal (modul) bilimlarga asoslanadi. Shu boisdan pedagogik hodimlar, shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchilar o'z faoliyatlarida pedagogik texnologiyadan foydalanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, yuqorida qayd etilgan bilimlarni puxta o'zlashtira olishlari lozim. Zero, pedagogik texnologiya puxta o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tashkil etiladigan yuksak samarador pedagogik faoliyat jarayoni.

I. 2. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanish afzalliklari.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida o'qitish jarayonida ilg'or, zamonaviy pedagogika texnologiyalarni keng ko'lamda tadbiq etish barcha turdagi ta'lim muassalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi.

Darhaqiqat o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi mashg'ulotlarni rang-barang, jo'shqin, qiziqarli tarzda tashkil etishiga olib kelishi bilan o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan yuqori darajada o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'qitishning ilg'or, samarali usullarini izlab topishi, yoxud ma'lum bo'lgan usul unumli, ijodiy ravishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llashlari zarur.

Ushbu bobda pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish borasidagi muammolarga to'xtalib o'tamiz. Buning uchun mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini to'laqonli anglab olmoq lozim.

Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim- tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limni bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va nihoyat, bu tub islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Bularni hisobga olgan holda ta'lim sohasidagi islohatlar, erishilayotgan yutuqlar, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, xatolar; kamchiliklarni yuzaga keltirayotgan muammolarga yuzlanamiz. "Nima sababdan kamchiliklar yuzaga kelyapti?"

Biz aytib o'tayotgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda o'quvchi asosiy o'rinda turishi, bosh figura bosh rolda o'quvchi bo'lishi kerak. Bizda esa aksincha, o'qituvchi bosh figura, u axborot berish, darsni tezroq o'tish, o'quvchilarni tezroq o'qitish bilan ovora. Ammo, o'quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi, yangiliklarni qabul qilish, tushunishi turlicha. Buni hisobga olmoq kerak. Qanday bo'lsa-da har bir o'quvchini darsda faol ishtirok etishga jalb etish darkor. An'anaviy tarzda o'tilayotgan darslarda esa o'quvchi passiv eshituvchi, quloq soluvchi xolos, u o'z fikri, mushohadasi bilan darsda ishtirok etmaydi. Bu darsning kamchiliklarini ko'rib chiqaylik:

- Darsning bir qolipdaligi;
- Boshlang'ich ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyga reja, vazifa orqali amalga oshadi;
- O'quvchilar passiv eshituvchi va mustaqilligi yo'q;

- O`quvchilar bir-biri bilan fikr almashmaydilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi;
- Qayta aloqalar yo`lga qo`yilmaydi;
- Har bir faoliyat o`rtacha o`quvchiga yondashuv asosida kechadi;
- Ta`lim mazmuni asosan o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Bu dars o`quvchilarning o`quv jarayonidagi ma'suliyatini, javobgarlik hissini, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini susaytiradi. Muammoning yechimini topmoq uchun nima qilmoq kerak?!

Dars jarayonida, ta`lim-tarbiyada o`quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta`lim jarayoni bo`lishi kerak, ya`ni o`qish, o`rganish, mutolaa qilishda o`quvchi faol ishtirokchi bo`lishi kerak. O`qituvchi esa o`qitishdan o`qishni o`rganishda, bilim berishdan o`quvchilarning bilimlarni mustaqil egalashlariga ko`maklashish zarur.

O`qituvchi o`quvchini faol ishtirokchi bo`lishi uchun muhit yaratishga va uni mas`uliyatni sezishga yo`llashi kerak.

Ma`lumki, har bir dars uchun ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ya`ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo`lgan uch yoqlama maqsad qo`yiladi. Darsni tashkil qilish shakli, dars ishtirokchilarining o`zaro aloqalariga bo`g`liq bo`lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish o`quv materiali xususiyatlariga, ta`lim metodlariga, o`quv imkoniyatlari, o`qituvchi mahorati va texnikasiga bo`g`liq. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o`qituvchi rahnamoligida o`qituvchi bilan o`quvchilar birgalikda harakat qiladilar. Huddi mana shu samarali amalga oshirilsagina u o`quv jarayoni deyiladi.

O`quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch-o`quvchi uchun ham, o`qituvchi uchun ham ichki motivatsiya (diqqatni tortish, ichki tuyg`u, istak, zaruratini shakllatirish) bo`lishi kerak. Bunda o`quvchilar bilim olishga intilishi, bilim olishga ehtiyoji yuqori bo`lishi kerak. O`quvchi real hayotga kirib borishi uchun bilim, ko`nikma va malakalar bilan birga ilmiy bilish metodlariga ega bo`lishi kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki ochiq jamiyatning

asosiy belgisi - bu dunyoni anglab yetish va unda o`zining munosib o`rnini topish uchun erkin ishlash, izlanish demakdir.

O`qituvchidan o`quvchilarga tashabuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o`zlashtirishni, zarur malaka va ko`nikmalarni, kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog`lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashda imkon beruvchi didaktik prinsip bu-ta`limdagi faollikdir.

Bunday tizimda o`quvchi ham, o`qituvchi ham ta`lim tarbiya jarayoniga birgalikda mas`uldir. Ular birgalikda har bir o`quvchining bilim va qobiliyatini, individual intilish va ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o`qituvchi faqat "baholovchi" emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi.

Har qanday pedagogik yangilik zaminida biron bir g`oya yotadi. Masalan, bunyodkor o`qituvchi S.N. Lesenkovaning tub mohiyatini yangi o`quv materialini ilgarilama o`rganish g`oyasi tashkil qiladi. Bu g`oya asosida o`qituvchining bolalar bilan o`zaro harakati yotadi: sinfda psixologik birlik holatini, vaziyatini yaratish; har bir o`qituvchi o`z shaxsini o`zi namoyon etishini ta`minlash, har bir metodik yondashuv uchun o`ziga xos muloqot yo`lini tanlash, o`quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish. Darsdagi o`quvchilar faoliyatiga nafaqat o`qituvchi, balki o`quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avval a`lochi o`quvchilar, so`ngra boshqa o`quvchilar ham o`qituvchi topshirig`iga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o`quvchilarni orqalaridan ergashtiradilar. Bunday "izohli boshqaruv" o`quvchi maktab ostonasiga qadam qo`ygan kundan boshlanishi zarur.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta`lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta`limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejiladi, bu esa boshlang`ich ta`lim tizimidagi qo`llanadigan pedagogic texnologiyalarning samaradorligi deganidir.

Pedagogic texnologiyaning boshqaruvchanligi – ishlangan model boshqa pedagoglar qo`llaganda ham yaxshi samara – natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so`z bilan aytganda ta`lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik,

bunyodkorlik tadbiriq etilsagina, ta`lim samarasi yangi – samarali bosqichga ko`tariladi.


O`quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratiladi. O`quvchilarning o`zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O`zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug`diriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir-birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo`lib, vaqt o`tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtrokchi ta`lim mazmunini mualliflardek his etadilar. Ta`lim mazmunini to`la o`zlashtiradilar. Ya`ni – o`quvchining talabi, moyilligi, istak-xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

- o`quvchining mehnat mas`uliyati javobgarligi, burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash, ijodiy yondashuv malakalari shakllanadi;
- erkin fikrlash malakalari shakllanadi;
- har bir yangilikni “o`zi tadbiriq etishga”, yangilikni ochish “kashf etishga” intiladi.

Buning uchun bugun biz o`quvchiga “sen buni bilishing shart” degan majburlovchi da`vatdan “menga bu zarur, men buni bilishga, uddalashga, uni hayotga tadbiriq etishga qodirman” degan bir ichki tuyg`u – xohish-istakni uyg`otishga harakat qilmog`imiz zarur.

Ta`lim-tarbiya ishini tashkil etishda o`quvchi va o`qituvchi orasidagi o`zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo`lib, ular quyidagilardir:

O`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi munosabat turlari



Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko`nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo`llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog`liq. Masalan, o`quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o`quv materiallariga tanqidiy yondashish ko`nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning an`anaviy shakllari (uyg`unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferensiya darsi, ishchan o`yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ta`lim metodlari ta`lim maqsadi bilan mutanosib bo`lishi kerak. Chunonchi, bilimlari turli vaziyatlarda qo`lashga yo`naltirilgan topshiriqlar, yangi sharoitda faoliyat ko`rsatishga undovchi topshiriqlarni bajarish, o`zlashtirilgan bilimlar asosida sxemalar tuzish, ularni tasniflash, qiyoslash, izchil tizimga solish, umumlashtirish va boshqalar.

Yetarli darajadagi rag`bat hamda o`quvchilar faoliyatini tashkil etish bilan ham ko`zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta`lim-tarbiya jarayoninig didaktik nuqtai-nazardan takomillashuv faqatgina, ushbu jarayonni tashkil etish

va boshqarish yo'llarini to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyani boshqarish o'zida ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

- faoliyatni boshqarish;
- o'quvchilar jamoasini boshqarish.

Muayyan pedagogik texnologiyani tanlash o'zgaruvchan dars holatining o'zgarishiga imkon beradi hamda faoliyat maqsadida qarab amalga oshiriladi. Shuningdek, variantli tarzda dars holatini o'zgartirish choralarini ko'rishni taqazo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bilish jarayonini boshqarishga qoyilayotgan talab, shuningdek, o'zgartirish, muloqot qilish, faoliyat ko'rsatish bosqichlarining xususiyati bilan bog'liqdir.

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi.

Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmet sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatining qonuniyat va mezonlarni tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yetarli bo'lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi qoniqarsiz deya baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta'rif va tavsiflarning noaniqlovchi ba'zi kategoriyalarning yetishmasligi, ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o'qitish vositalari o'rtasida o'zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar.

Ular tomonidan "metodika" tushunchasi yuqori darajadagi sub'yektivlikka ega ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatda esa ta'lim natijalari o'quvchining pedagogik jarayonlardan muvaffaqiyatli "o'tganligi" bilan belgilanadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati - o`qituvchi va o`quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o`quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati, pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma`lum maqsadga yo`naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakillantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagog axborotlarni e`lon qilish, ko`rsatish eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo`naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, talabchanlikni qo`llab-quvatlash kabi ko`rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy o`qitish texnologiyalari- majmuaviy integral (butun, uzviy bog`liq) tizim bo`lib, unda ta`lim maqsadlari asosida belgilangan ko`nikma va malakalar o`quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o`lashtirish, ularda muayyan ma`naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma`lum tartibga solingan to`plami sifatida aks etadi.

Bu o`rinda ta`lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta`lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta`lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o`quvchilar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo`l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo`llanishi o`quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Ta`lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etoshda pedagogik vazifaning qo`yilishi va uni hal etishga alohida e`tibor berilishi zarur. Qachonki maqsad va vazifalar aniq belgilab olinsa, ularni amalga oshirish yo`llari tog`ri tanlansa, kutilgan natijaga erishish mumkin.

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- ta`lim maqsadlarini tashkil etish asosida o`quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o`quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o`quv unsurlari tizimi ko`rinishda ifodalash;

- o`quvchilarning o`quv unsurlarini o`zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;
- o`quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash (bu ko`rsatkich o`quv predmetining mazmuni asoslanadigan o`quv materialini o`zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi);
- moddiy baza hamda ta`limning tashkiliy shakllariga qo`yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etishini ta`minlovchi o`qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan texnologiyalari. Ammo hamma ta`lim muassalarida ham ushbu pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda deyish to`g`ri bo`lmaydi, chunki ayni vaqtda yuqorida sanab o`tilgan pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, maqsadi, mexanizmini barcha pedagog kadrlar ham to`laqonli biladi, ularni ta`lim jarayoniga samarali tarzda tadbqiq etadi deya olmaymiz. Ayni shu masala ham pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga tadbqiq etish borasidagi muammolardan biridir.

Shu o`rinda ta`lim maqsadlarining belgilanish, mazmunini tanlash va ishlab chiqish, ta`lim jarayonlarini tashkil qilish, ta`lim metod va vositalarining belgilanish, shuningdek, o`qituvchilar malaka darajasi, erishilgan natijalarni baholash metodi inobatga olinishi lozim. Ta`lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifalarning qo`yilishi va uni hal etishga alohida e`tibor berilishi zarur. Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta`minlovchi o`qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan (bunda har bir fan o`qituvchining faoliyati ko`zda tutilgan) o`qituvchi faoliyatining mazmuni metod, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi.

Pedagog faoliyati mazmunini belgilovchi asosiy omillar:

- boshqarish turi;
- axborot almashish jarayonining turi;
- axborotni uzatish vositalalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

O`qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi mumkin: dastlab o`quv materialini mazmuning tavsifi, uni o`rgatishdan ko`zlagan maqsad (o`zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo`yilish shartlari tahlil etiladi. So`ngra o`qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab choqilishi zarur. Shu asosda o`qitish vositalarining ro`yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta`lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg`unlashtiriladi, ya`ni muayyan texnologiya ishlab chiqiladi.

Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma`lum psixo-pedagogik asoslarda qirilgan “sintetik-nazariya” sifatida qaraladi.

Tarbiyaviy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijalarga erishishga yo`naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo`naltiriladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda ta`lim muassalari amaliyotiga quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda.

Muammoli o`qitish; mujassamlashtirilgan ta`lim, modul ta`lim, rivojlantiruvchi ta`lim, differensiallashgan ta`lim, faol o`qitish, o`yin texnologiyalari. Ammo hamma ta`lim muassalarida ham ushbu pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda deyish notog`ri, chunki ayni vaqtda yuqorida sanab o`tilgan pedagogik texnologiyalarning mazmun mohiyati, maqsadi va mexanizmini chuqur anglab yetgan, ulardan ta`lim jarayonida unumli foydalana oladigan pedagog kadrlar yetarli emas. Buni ham yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash borasidagi muammolardan biri deya olamiz.


Ta`lim jarayoning maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o`quv manbalari (o`quv dasturi, rejasi, darslik, qo`llanmalar) saviyasi, shuningdek, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahotariga bevosita bog`liqdir.

Ta`lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llashda o`quv dasturidagi mazmun mukammaligi, darslik hamda qo`llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o`quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko`ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg`ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi, o`qituvchi hamda o`quvchilar o`rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi masalalarni ham inobatga olish darkor.

Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo`llashning yana bir omili-bu muayyan, yaxlit ta`limiy jarayonni oldindan loyihalash, o`quvchilar tomonidan o`zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko`mikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta`lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishi avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo`nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, xalq ta`limi muassalari va oiliy o`quv yurtlari oldida o`quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha o`quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat`iy nazar tashkil etiladigan ta`lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda ta`lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish yo`lidagi muammolarni quyidagi jadval ko`rinishiga keltirish mumkin.

Ta`lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish yo`lidagi muammolar



Mazkur muammolarning ijobiy hal etilishi ta`lim-tarbiya jarayonlarida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi.

I bob bo`yicha xulosa

Biz ushbu bobda pedagogik texnologiya nima ekanligi, unga berilgan ta`riflar, olimlarning qarashlari, pedagogik texnologiyani o`ziga xos xususiyatlari, ko`rinishlari haqida, shuningdek, pedagogik texnologiyani ta`lim jarayonida qo`llash borasida yuzaga kelayotgan kamchiliklar, muammolar xususida to`xtaldik. Darhaqiqat, pedagogik texnologiya bugun paydo bo`lib qolgan yo`nalish emas. Pedagogik texnologiyani olimlar turlicha talqin etsalarda, uning asl mohiyati oldindan loyihalangan o`quv tarbiyaviy jarayonni amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishda namoyon bo`ladi.

Pedagogik texnologiya ta`lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida fan asoslari bo`yicha o`quvchilarning ta`lim olishini maqsadga muvofiq tashkil etishni ko`zda tutadi.

Kuzatishlar, tahlil va xulosalar shunga olib keladiki, o`quv mashg`ulotlari, shuningdek, tarbiyaviy jarayonning bir xilda takrorlanishi o`quvchilarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas`uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Ayni vaqtda bunday holatning oldini olishning eng samarali yo`li sifatida ta`lim muassalari faoliyatiga ilg`or pedagogik texnologiyalarni izchil va maqsadga muvofiq ravishda tadbiiq etish e`tirof etilmoqda.

Ammo barcha ta`lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayoniga to`liq tadbiiq etilgan, kutilgan natijalarga erishilmoqda deya olmaymiz. Buning bir qator saboblari mavjud. Bu xususida yuqorida to`xtalib o`tdik. Shuni alohida qayd etib o`tmoqchimanki, texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta`lim va tarbiya jarayonini yo`lga qo`yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har

bir pedagogning shaxsiy, imkoniyatlari, kasbiy mahorati, ijodkorlik layoqati darajasiga bog`liq.

Shu bilan bir qatorda olg`or pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga samarali tadbiq ertish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi lozimligini ham yodda tutish lozim. (I.2 p. qaralsin)

Umuman, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta`lim jarayonida o`quvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi, erkin, ijodiy muhitni yaratuvchi, ta`lim samaradorligini kafolatlovchi, mahoratli o`qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan pedagogik tizim loyihasidir.

II bob. Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida interfaol metodlarini qo'llanish shakllari.

II. 1. Odobnoma darslari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish texnologiyalari.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innavatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, katta ijodiy xulosalar chiqarishlariga ham o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. Bu pedagogikaning yetakchi tendensiyalarida o'z aksini topgan:

1. Bola shaxsini birinchi o'ringa ko'tarish;
2. O'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirish ustivorligi;
3. Mustaqil fikrlashga o'rgatish;
4. Bolaning tarbiyalanishi va bilimlarni o'zlashtirishi jarayonida o'zining ishtirokini ta'minlash;
5. Bolaga kashf etish lazzatini tuydirish;
6. Pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega, shaxs sifatida shakllantirishda, har qanday sharoitda ham o'z nutqni nazariga ega bo'lgan, erkin fikrlovchi inson bo'lishida katta yordam beradi.

O'qituvchi - darsning ijodkori, u tayyor texnologiyalarining oddiy ijrochisiga aylanmasligi, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'z yo'lini izlashi va ishtiyoqi bilan faoliyatiga kirishishi lozim. Bolalarni amaliy faoliyatga yo'naltirish, obrazga kirish, teatrlashtirilgan kichik sahnalar qo'yish, bahs-

munozaralar uyishtirish, savollar qo`ya olish, o`z fikrini erkin ifodalash va shu bilan birga bahs-munozaralar yuritish madaniyatini egallashlariga imkon berish kerak. O`qituvchi o`quvchini o`zi bilan teng ishtirokchi, hamkor sifatida ko`rishi, bola fikrlarini hurmat qilishi, eshitishi, ular bilan hisoblashishi, o`z fikrini hukm sifatida emas, o`quvchilar fikri bilan teng darajada o`rtaga tashlashi mumkin.

Odobnoma darslari ijodiy, noan`anaviy suhbat, o`yin, oilada, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi:

1. Darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
2. Pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
3. Pedagogik texnologiya jarayonida didaktik qoidalar;
4. O`qituvchining mahorat texnikasi.

Pedagogik texnologiyani qo`llashda o`qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik ta'lim- tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o`tgan didaktika sohasidagi yangliklarni joriy etish.
2. Ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish. O`quv dasturlariga ham befarq bo`lmasdan sinchkovlik bilan o`rganish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi ijodlarni o`rganib borish.
4. O`quv jarayonida o`quvchi bilan o`qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.
5. Ilmiylik - yangi usul vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o`quvchilarni mustaqil fikrlash va o`zini anglashga o`rgatish.
6. Buning uchun bolalarni dastur mavzulari asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.
7. Ilg`or tajribalarga suyanish.
8. Dars maqsadining aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o`quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyati, darsda "Xalq

og`zaki ijodi" rubrikasida: maqol, ertaklardan o`rinli foydalanishi, o`yin, test savollari, ko`rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun har bir o`qituvchi odobnomani o`rgatishda nazariy chuqur bilimga ega bo`lishi zarur.

Demak, odobnoma darslarini turli shakllarda tashkil etish mumkin.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki u o`quvchilarning o`zaro muloqot va o`zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul – “Interaktiv” so`zi ingliz so`zidan olingan bo`lib, “Interakt”, ya'ni Inter-bu “o`zaro”, “akt”- “harakat, ta'sir, faollik” ma'nolarini beradi. Yani o`quvchilar hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, o`quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko`nikmasini shakllantirish demakdir.

O`qitish jarayoni bir xil davom etaversa, o`quvchining eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Bu holat o`quvchini loqayd eshituvchiga aylantiradi. Natijada samaradorlik kamaya boradi, mashg`ulotlarning sifati ham pasayadi. Shuning uchun mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o`quvchilar uchun qulaylik tug`diradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, eng sust o`zlashtiruvchi o`quvchilarni ham harakatlantiradi.

Pedagogik texnologiyaning interfaol usulida o`quvchi o`zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so`zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo`yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o`quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu o`zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi o`quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o`quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. Ilg`or pedagogik texnologiyalarining juda ko`p usullari mavjud. Bu usullaridan o`quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. Boshlang`ich sinflarda "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Test", Rolli o`yinlar", "Klaster", "Sahna" darslari, "O`yin-

tumir", "Aql charhi", "Sarlovhasi mendan, matni sendan", o`yini. "Tadqimot va muzyoralar", "Gapni oxiriga yetkaz", "Ijodiy mehnat" usullaridan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko`zda tutib, muammoni keltirib, o`quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma'lum malakalarga ega bo`lgan holatlarda qo`llanilsa kutilgan natijalarni olish mumkin.

1. O`yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joydan mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyliigi va zamonaviyiligi bilan odob-axloq tushunchalarni tarbiyalashga qaratilishi.

2. O`quv mashg`ulotni rang-barang usullar: audio, video, taqdimot, ko`gazmalilik, jonli so`z ta'sirida tashkil etish.

3. O`qituvchilar yangi texnologik mahoratga ega bo`lishi va ijodkorligi.

Odob - tarbiya - go`zal ahloq nazokatlik demakdir. Odob tushunchasi va uning mazmuni haqida ko`p qoidalar, ta'riflar mutafakkir, ma'rifatparvarlik tomonidan berilgan.

Odob - xalqimizning boy milliy me'rosimizda, xalq og`zaki ijodiyoti va yozma ijodkorliklarida o`ziga xos va mos odoblik g`oyalari, fazilat va qadriyatlariga ega.

Odob - hayotdan o`qish, o`rganish, oila tarbiyasi zaminida paydo bo`ladigan muomala - munosabatlar majmuasidir.

Odob - insonlarni ruhiy xolatlarini aks ettiruvchi ma'daniy munosabatlar tizimidir.

Odob va axloq tushunchalari chambarchas bog`liq bo`lib, insonning axloqi mavjud qonun va qoidalar me'yoriy talablarini bajarishda o`z ifodasini topadi.

Odobnoma fanining asosiy manbalari:

- xalq og`zaki ijodi qirralari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- xalq pedagogikasi;
- diniy-ma'naviy tarbiya;
- mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asoslari;
- odob durdonalari (pandnoma va nasihatnomalar).

II. 2. Noan'anaviy odobnoma darslarida interfaol metodlarining qo'llanish shakllari.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hozirgi kunda bot-bot takrorlanmoqda.

Ayni vaqtda boshlang'ich sinf odobnoma darslarini tashkil etish jarayonida o'quv mateiallarini loyihalashda ta'lim texnologiyalarining muammoli, kompyuterli, modulli, mantiqiy-mazmunli, hamkorlikda o'qitish turlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini loyihalash orqali nafaqat o'quv fanini o'zlashtirishda ko'zlagan natijalarga o'zaro yordam, bir-biriga hurmat, insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish orqali do'stona munisabatlarni yo'lga qo'yishga ham yordam beradi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusidan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalar qanday shakllarda qo'llanilayotganligiga to'xtalib o'lamiz. O'quvchini mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash, o'z fikrini himoya qilish, siyosiy-huquqiy ongini oshirish, odobnoma fanini o'qitishning sifat-samaradorligini oshirish borasida Vazirlar Mahkamasining bir qator ko'rsatmalari asosida Xalq ta'limi vazirligi odobnoma fanini o'qitishning yangi texnologiyasini qo'llash masalalarini mutaxassislar oldiga qo'ydi. Bu borada qator ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va qo'llanmalar yaratildi.

Oz'bekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov 1998- yil 23-yanvar kuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasining majlisidagi nutqida shunaday fikrlarni o'rta tashladi: "Oz'bekiston yoshlari modomiki, islohotlarning samarali muayyan darajada ularning qanday inson bo'lib yetishishiga bog'liq ekan, milliy ma'naviyat, qadriyatlar, ota-bobolarimiz merosiga hurmat, milliy g'urur va iftixorimizni yuksaltiradigan, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlaydigan dasturlar asosida tahsil olishi, tarbiya ko'rishi lozim".

Ana shu vazifalarni bajarish maqsadida ta'lim tizimida davrga mos yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi.

Pedagogik texnologiya nima ekanligiga oldingi bobda batafsil to'xtalib o'tgan bo'lsakda, yana qisqacha to'xtalmoqchimiz: pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya- faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, turli xil texnik vositalardir deb biladilar. Bizning fikrimizcha pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon.

Pedagogik maqsadlarning amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishga qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning saviyasi, jamoa xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (tarqatma material, chizma, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bulaning barchasi o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv predmetning o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiy o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Boshlang`ich sinf odobnoma darslarida pedagogik texnologiyalarni qo`llash uchun eng avvalo dars turi, maqsadi, mavzusiga to`xtalishimiz tabiiy. Shunday ekan biz, eng avvalo mana shu darsning texnologik xatirasini tuzib olishimiz darkor, chunki darsning texnologik xotirasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Darsning texnologik xaritasini qay ko`rinishda tuzish, bu o`qituvchining tajribasi, qo`ygan maqsadi, ijodkorligi va ixtiyoriga bog`liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo`lamsin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija bo`lishi lozim. Darsni tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi lozim. Texnologik xaritaning tuzilishi o`qituvchini darsning kengaytirilgan ishlanmasini tuzishdan, yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o`quvchi va o`qituvchi faoliyatining barcha qirralari o`z aksini topadi.

Misol tariqasida bitiruv malakaviy ish mavzusidan kelib chiqib, odobnoma fanidan “Ota+ona - aziz va mo`tabar” mavzusi bo`yicha o`tkaziladigan darsning oldidan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini havola qilamiz:

Mavzu	Ota+ona-aziz va mo`tabar
Maqsad va vazifalari	<p>Maqsad: O`quvchilarga ota+ona aziz va mo`tabar ekanligini, ularni har doim hurmat qilish lozimligini tushuntirish.</p> <p>Vazifalar: O`quvchilarga darsga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularga mavzu asosida bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va kengaytirish; Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o`quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o`zlashtirib olishlari hamda sihat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar (maqollar, she`r, rivoyat...) qay darajada o`zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimlarini baholash</p>

<p style="text-align: center;">Kutilgan natijalar</p>	<p>Mavzu yuzasidan tarqatma materiallar (maqollar)ning mazmunini ochish.</p> <p>Eng aziz insonlar: ota-onaning oiladagi beqiyos o`rnini tushuntirish.</p> <p>Oilada ota+onaning burchi.</p> <p>Oilada farzandlarning burchi.</p> <p>Bobo va buvasi bilan yashaydigan o`quvchilar bilan suhbat.</p> <p>Oilada ota-onaga munosabat.</p> <p>Go`zal hulq egasi bo`lish tog`risida tushunchalar berish, o`zaro suhbat uyushtirish, berilgan matn mazmunini o`zlashtirishga sharoit yaratish.</p>
<p style="text-align: center;">O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Uslub: Og`zaki bayon qilish, “Bumerang” texnologiyasi.</p> <p>Shakl: Suhbat-munozara, amaliy mashg`ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash</p> <p>Vosita: Tarqatma materiallar; maqollar, she`rlar.</p> <p>Usul: Yozma materiallar va rasmlar asosida</p> <p>Nazorat: Og`zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o`z-o`zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: Rag`batlantirish, 5 ball tizimida baholash.</p>

Kutilgan natijalar	<p>O`qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishiga erishadi. O`quvchilar faolligini oshiradi. O`quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uygo`tadi. Biz mashg`ulot jarayonida barcha o`quvchilar baholanadi. O`z oldiga qo`ygan maqsadlarni amalga oshiradi. O`quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o`rganish, uni xotirada saqlash, boshqalar bilan fikr almashish, savol berish va savolga javob berishga o`rgatadi.</p> <p>O`quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo`lib ishlashga o`rganadi. Nutqi rivojlanadi va esda saqlab qolish qobiliyati kuchayadi. O`z-o`zini nazorat qilishni o`rganadi. Qisqa vaqt ichida ko`p mashg`ulotga bajarishga imkoni bo`ladi.</p>
	<p>O`qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o`zlashtiradi, darsga tadbqiq etadi, takomillashtiradi va o`z ustida ishlaydi. Mavzularni qiziqarli materiallar bilan boyitadi, hayotiy vaqealar bilan bog`laydi va pedagogik mahoratini oshiradi.</p> <p>O`quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o`rganadi. O`z fikrini erkin, ravon bayon qiladi. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar topadi, ularni o`qib o`rganadi. O`z fikri va guruh fikrini eshtish, taxlil qilish, ma`lum bir xulosaga kelishni o`rganadi.</p>

O`qituvchi o`qitayotgan fanining har bir mavzusi, har bir dars mashg`uloti bo`yicha tuzgan texnologik xotirasi, unga fanni yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishga, yaxlit o`quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko`ra olishga yordam beriladi. Ayniqsa, texnologik xaritaning o`quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta`limning markaziga olib chiqishga va bu bilan o`qitishning samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

O`quv jarayonida o`quvchiga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo`llanilishi o`quvchilarni mustaqil erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas`uliyatni his qilish, eng asosiysi o`qishga, fanga qiziqishlarini, shuningdek, o`qituvchisiga nisbatan hurmatni kuchaytiradi.

Boshlang`ich sinf odoynoma darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llashda o`tmish allomalaimizning g`oya va qarashlaridan foydalanish o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashning yanada samarali bo`lishini ta`minlaydi.

Bunday natijaga erishish o`quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo`llashni taqazo etadi. Texnologiyalar nihoyatda xilma-xil ekanini yuqorida ko`rib chiqdik.

Biz o`z kuzatishlarimiz, izlanishlarimiz, tajribalarimiz asosida ulardan ba`zilarini tashkil etish, ularni o`tkazish tartibi haqida odoynoma darsi misolida to`xtalamiz.

O`quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllatirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradigan tavsiyalar beramiz.

O`qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish o`qituvchidan juda ko`p samarali mehnatni talab etadi. Biz kuzatgan Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 72-maktabidagi va Mirobod tumanidagi 154-maktabning ilg`or tajribaga ega o`qituvchilar mahorati quyidagi yangi pedagogik texnologiyafa o`z ifodasini topdi.

Birinchidan, dars mazmunidan kelib chiqish, maqsadning aniqligi. Maqsadga ko`ra darslarni xilma-xil shakllarda tashkil etish:

1. Ijodiy dars.
2. Ertalik darsi
3. Bahs
4. Suhbat
5. Sayohat darslari
6. Uchrashuvli dars

Ikkinchidan, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televideniye, ma`naviy o`yinlar, mushoiralar qo`llanilishi.

Uchinchidan, o`quvchilarning bilim va tarbiyalanganik darajasini aniqlash maqsadida tezkor testlar hamda reyting orqali o`quvchilar bilimini aniqlash kabi pedagogik texnologiyalarning o`ziga xos shakllaridan foydalanish.

Ayniqsa, o`qituvchining o`z faoliyatiga yangicha yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz qiyida mana shu pedagogik texnologiyaga oid bo`lgan darslardan namunalar keltiramiz:

Yakkasaroy tumanidagi 72-maktabning oily toifali boshlang`ich sinf o`qituvchi Ma`mura Xoliqovanning darsni qay tarzda tashkil etganini ko`raylik:

- 1. Dars mavzusi:** “O`zbekiston- vatanim manim” (ertalik)
- 2. Darsning maqsadi:** O`zbekiston mustaqil Vatan ekanligi, O`zbekiston Respublikasining ramzlari va ularning mazmunini ochib berish orqali ona yurtimizga mehr uyg`otish.
- 3. Darsning jihozi:** O`zbekiston Gerbi va Bayrog`i rasmlari, madhiya yozilgan ko`rgazmali qurol, O`zbekiston xaritasi, allomalarning rasmlari.

4. Darsning borishi:

- Bolajonlar! Bugun biz “O`zbekiston- Vatanim manim” mavzusida dars o`tamiz. Bu darsda biz O`zbekiston hududidagi viloyatlar biln tanishamiz. Vatanimizning gerbi, bayrog`i, madhiyasi haqida suhbatlashamiz.

Yuzrtimizning allomalari haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz. Madhiyani yoddan kuylaymiz. Gerb va bayrog` haqida yod olgan she`rlarimizni qo`shiq qilib aytamiz.

Dars madhiyani kuylash bilan boshlanadi. Madhiyani kuylab bo`lingach, uning mazmuni tahlil qilinadi.

So`ngra dars savol-javob bilan davom etadi.

- Vatan nima?
- Vatan biz tug`ilib o`sgan uyimiz, mahallamiz, tumanimiz, shahrimiz, ona diyorumiz.
- Siz qaysi Respublikada yashaysiz?

- Oz`bekiston Respublikasida yashaymiz.
- O`zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
- O`zbekistonning poyaxti- Toshkent shahri.
- Toshkentda qancha millat yashaydi?
- Toshkentda 100dan ortiq millat vakillari yashaydi.
- Toshkent qanday shahar?
- Toshkent go`zal shahar.
- O`zbekistonning yana qanday shaharlarini bilasiz?
- Buzoro, Samarqand, Shahrisabz. Xiva, Termiz, Andijon, Namangan, Qarshi kabi shaharlarini bilamiz. (xaritadan ko`rsatiladi).
- O`zbekistonning nechta viloyati bor?
- 12ta.

Hamma birgalikda nomlaydi: Toshkent, Namangan, Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg`ona, Xorazm, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo.

- Oz`bekistonda kimlar yashaydi?
- O`zbekistonda ko`proq o`zbeklar yashaydi, shuning uchun O`zbekiston deyiladi. "O`zbekim" she`ri yoddan aytiladi.
- Oz`bek allomalaridan kimlarni bilasiz?
- Al- Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarni bilamiz.

Gerbimizda tog`lar bor,
 Daryolar bor, bog`lar bor
 O`ng tomoni bug`doyzor,
 So`l tomoni paxtazor.

Chambarakka o`raglan,
 Vodiy uzra quyosh bor.
 Hurligimizning razmi
 Humo degan qushi bor.

Bayrog`i bor, gerbi bor,
Erkinsevar O`zbekiston.
Madhiyangni kuylayman,
Janajon O`zbekiston.

Gerb rasmi asosida tashkil qilinadi. So`ngra har bir o`quvchi partasida turgan bayroqni qo`llariga oladilar, uni havo uzra sekin hilpiratadilar va bayroq tashkil qilinadi. Bayroq haqida ham she`r yodlatiladi.

Bayrog`imiz maviy rang,
Samodan berar darak.
Oq rangiga doimo,
Yaxshilikdir mushtarak.
Yashil rangi hayotdir,
Ham yashnagan tabiat,
Qip-qizil chizig`ida,
Yashnagay yaxshi niyat.

Osmon to`la yulduzlar,
Bayrog`imizda belgi.
Oy istiqlol nishoni,
Mustaqillikka belgi.

Gerb va bayroq yuzasidan savol-javob o`tkaziladi.

- Gerbning o`ng tomonida nima tasvirlangan?
- O`ng tomonda bug`doy boshog`i tasvirlangan.
- Chap tomonida-chi?
- Paxta tolasi.
- Yana nimalar tasvirlangan?
- Gerbda tog`lar, vodiylar, nur sochib turgan quyosh tasvirlangan.

- Gerbning o`rtasida-chi?
- Gerbning o`rtasida qanotini yozib turgan hurligimizning ramzi Huno qushi tasvirlangan.
- Bayrog`imizning zangori rangi nimani bildiradi?
- Osmonimiz musaffoligini, zilol-zilol suvini bildiradi.
- Yana-chi?
- Bobomiz Amir Temur davri bayrog`i ham zangori rangda bo`lgan.
- Bayroqdagi oq rang nimani bildiradi?
- Oq rang bizga oq yo`l tilaydi, yana oq rang tinchlik, poklik ramzi.
- Bayroqdagi yashil rang qanday ma`noni bildiradi?
- Yashil rang tabiat, yashnab turgan hayot, hosildorlik, yerdagi yashillikni bildiradi.
- Qizil rang-chi?
- Qizil rang-hayot tomirlarimizda oqib turgan qonimiz...

Mirobod tumanidagi 154- maktabning oily toifali boshlang`ch sinf o`qituvchisi Mamlakat So`fibekova.

Dars mavzusi: “Rostgo`ylik va kamtarlik- yaxshi odat” (Bahs)

Darsning maqsadi: Rostgo`lik, kamtarlik fazilatlari mohiyatini oshirish orqali o`quvchilarda yaxshi odob-axloqqa xos fazilatlarni tarbiyalash.

Darsning jihozi: Rasmlar, maqollar, donolar hikmatlari.

Darsning borishi: Vatanimiz ziyoratgohlarini umumlashtirib, kimlar va qanday fazilatli insonlar o`lgandan keyin ham e`zozlanishi haqidagi o`quvchilar fikrini aniqlab, to`ldirish.

Yangi mavzu: O`qituvchi darsini quyidagi she`r bilan boshlaydi:

Va`da bersang bajar uni,

Vaj qilmagin uni-buni.

Yoig`on so`zlash chakki odat,

Sodir bo`lsa gar shu holat,

Beburd, noshud bo`lib qolar,

Yolg`onchilik nomin olar.
Ishonmaslar hech so`ziga,
Na so`ziga, na o`ziga.
Shuning uchun har bir damda,
Ishonch qoldir sen odatda.
Oylab so`z ber! So`ngra o`rtoq,
So`z ustidan chiqqun tezroq.

Ro`stgo`ylik hech kimni aldamaslik ekanini, xalqimizning “boshingga qilich kelganda ham rost gapir”, degan maqoli bejiz emasligi, tushuntiriladi. Rostg`oy odam kamtar bo`ladi. U qanchalik yaxshi ishlarni qilgan bo`lsa-da, o`zini katta tutmaydi. Kamtar adam hech vaqt kam bo`lmas.

Yo`lg`onchilik, manmanlik, takabbirlik yomon odat ekanini tushuntirish. Takabburlik-o`zgalardan o`zini baland tutish. Bunday odatlarga qarata xalqimiz shunday deydi:

Boshing osmonga yetsa,
Egilgin tol majnundek.

Majnun tol egilsada soya beradi, shuning uchun uni aziz tutadilar.

Rasmlar asosida suhbat.

Dars sinf hayoti bilan bog`lanadi. O`quvchilar- bir daqiqa ko`zlarini yumib, “Biz qandaymiz?” mavzusida hayolan o`zi haqida hikoya tuzadilar (Bunda to`g`ri so`zlash, kamtarlik va yomon adatlar bor-yo`qligi tashkil etiladi.)

Mirobod tumanidagi 154-maktab oily toifali boshlang`ich sinf o`qituvchisi
Zulfizar Mirzajonova darsi

Dars mavzusi: “Jonivorlarga g`amxo`rlik” (Sayr)

Darsning maqsadi: Hayvonlar ham insonning yashashi uchun xizmat qilishlari haqida tushuncha berib, hayvon ham tabiat yaratgan boylik ekanligi, ularni asrash, qiynamaslik, doimo xabardor bo`lish, hayvonlarga g`amxo`rlik ko`rsatish kerakligi uqtiriladi.

Darsning jihozi: Hayvonlar tasvirlangan rasmlar, mumlangan nusxalar, maketlar.

Darsning borishi:

Dars tipratikan haqidagi matnni o`qish bilan boshlanadi: bu matndan tipratikan ajoyib hayvon ekani, o`quvchilarning tipratikanga bo`lgan munosabati, tipratikanning nima bilan oziqlanishi, tipratikanning o`z bolalariga munosabati rasmlar asosida tushuntiriladi.

So`ngra foydali uy hayvonlari, parrandalari hamda yovvoyi hayvonlar haqida ma`lumot beriladi. Hayvon, parrandalarni asrash, qish paytlarida qushlarga in qurish, g`amxo`rlik ko`rsatish har birimizning burchimiz ekanini tushuntirish. O`quvchilarning hayvonlarga munosabatini aniqlab, to`g`ri yoki notog`ri harakatlari tahlil qilinadi.

1-4 sinf “Odobnoma” dasturidan joy olgan mavzular oddiydan boshlanib tobora murakkablashib boradi. 1-sinfda “Odob salomdan boshlanadi” mavzusida o`quvchilarga dastlabki salomlashish odobi o`rgatiladi. 2- sinfda asta – sekin rivojlantirib, “Yaxshi –so`z jon ozig`i” mavzusiga bog`lanib ketadi. 3- sinfdagi “Orastalik yaxshi odat” mavzusiga doir darsda insonlarni bir- biriga yaqinlashtiruvchi ularni odobi ochiq chehrasi ekanligi, 4- sinfdagi “Odob – inson ziynati” mavzusida salomlashish, xushxulqlik , insondagi odobliqlik yuksak fazilat ekanligi asoslab beriladi.

1-4 sinf uchun yangi yaratilgan “Odobnoma” dasturining qimmatini shundaki, kerak bo`lgan o`rinda Qur`on oyatlari, Hadisi sharifdan donishmandlar o`gitlaridan foydalanilgan.

“Odobnoma” darslariga har bir sinf uchun yiliga 34 soat ajratilgan.

Xalq pedagogikasi milliy pedagogikaning sarchashmalaridan iborat bo`lib, mazkur fanning rivojlanishi uchun asosiy zamin bo`lib xizmat qiladi. O`tmish, xalqning bola tarbiyasi borasidagi tushunchalari va qarashlari hamda butun kishilik tarixi taraqqiyoti davomida to`plagan pedagogik tajribalarini chuqur va har tomonlama o`rganmay turib, pedagogika fani rivojlanishi tarixini ilmiy asosida ishlab chiqish mumkin emas. Olimlarimiz to`g`ri ta`kidlab o`tganlaridek,

hech kim hech qachon pedagogik faoliyatdan chetda yashamaydi, yashash ham mumkin emas. Garchi ayrim shaxslar bevosita pedagogik faoliyatda ishtirok etmasliklari mumkin, lekin u o`zgalarning pedagogik qurshovida bo`ladi, chunonchi buni hohlaydimi, yo`qmi kishilarning pedagogik ta`sirida bo`ladi, ulardan nimanidir o`rganadi va shu bilan birga ularning o`rgatuvchisi ham bo`lib qoladi. Har bir shaxs muayyan jamiyatda yashar ekan, o`z tabiatiga ko`ra, o`zining shaxsiy kamolot taqozosi bilan qonuniy va zaruriy tarzda ichki talab va ehtiyoj bilan ma`lum bir tarbiya ta`siri doirasida yuradi. Bu narsa har bir shaxsda o`zi yashab turgan jamiyatda o`zining va o`zgalarning tarbiyasi bilan shug`ullanishlari zaruratini tug`diradi. Ana shu zaruriyat xalq pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishining ob`ektiv qonuniyati hisoblanadi.

Qadimdan avlod-ajdodlarimizning ko`pchiligi maxsus bilimga, muayyan pedagogik tayyorgarlikka ega bo`lmasdan turib, halol, shirin va baxtiyor hayot kechirganlar, farzandlarini tarbiyalaganlar, ulardan orzu-xavas ko`rganlar. CHunki ularga tarixan tarkib topgan hayotiy tajribalari, ota-bobolaridan olgan saboqlari yordam bergan. Xalq pedagogikasi asosan xalq og`zaki ijodiyotida, uning barcha janrlarida o`zining ifodasini topgan. Biroq, ular ta`lim-tarbiyaviy qarashlari va tasavvurlarining oddiy yig`indisidan iborat emas, balki davr sinovlaridan o`tib, sayqallangan, muayyan tarzda tartibga tushirilgan pedagogik ijoddan iborat. SHunga ko`ra xalq pedagogikasi keng ma`noda xalq ijodiyotini o`zida aks ettiradi desak yangilishmagan bo`lamiz.

1-4 sinf “Odobnoma” dasturidan joy olgan mavzular orasida Xalq og`zaki ijodiga katta e`tibor berilgan , chunki Xalq og`zaki ijodida bolani jismoniy sog`lom o`sishi g`oyalariga ham keng e`tibor berilgan. Xalq azaldan o`z bolalarini sog`lom, epchil, baquvvat bo`lib o`sishiga doimo g`amxo`rlik qilib kelgan. Xalqda jismoniy barkamollik Vatan himoyasi va mardlik tushunchalari bilan chambarchas bog`lanib kelgan.

O`zbek qahramonlik dostonlaridagi obrazlar xalq pedagogikasida bolaning jismoniy baquvvat, botir, olov qalbli, qo`rqmas, shijoatli va eng muhimi o`z Vatani va yurti uchun jon fido qiluvchi farzandlarini tarbiyalashda muhim omil

bo`lib hisoblanadi. Jumladan, Alpomish, Rustamxon va shunga o`xshash o`zbek o`g`loni obrazlarini aytib o`tish o`rinli.

Xalq qo`shiqlarining «alla», «yor-yor», «o`lan», «aza-yig`i» kabi bir necha turga ega bo`lgan va xalqimiz orasida eng ko`p yoyilgan janrlardan bo`lib, mavzu jihatdan xalq hayotining barcha tomonlarini keng qamrab olgandir.

Maqollar-odob va ahloqiy tarbiya bo`yicha, qo`shiqlar-estetik tarbiya yuzasidan, ertak va dostonlar esa tarbiyaning jami tarkibiy qismi bo`yicha yoshlarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish vositasi bo`lib kelganligini ko`rsatib o`tishimiz maqsadga muvofiqdir. Maqollar insonlarning mehnat jarayonida to`plangan turmush tajribalari, dunyoqarashi, o`zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo`lgan munosabati, o`tmish hayot va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, orzu va umidlarini ifodalaydi. Xalq og`zaki ijodi tarbiyaviy nuqtai-nazardan shuning bilan afzalki, unda butun turmush manzaralari, turmush tarzi, qadimgi urf-odat va marosimlar, bolalar tarbiyasidan ko`zda tutilgan maqsad va vazifalar yaqqol aks ettirilgan. Ota-onalarning bolalarga ta`sir ko`rsatish yo`llari va bunda qo`llaniladigan tarbiya vositalari ko`rsatilgan.

O`zbek xalq ijodida biron-bir asar yo`qki, unda bola va uning tarbiyasi haqida fikr bildirilmagan bo`lsin. Ayniqsa, halqimiz o`rtasida keng tarqalgan va oilada farzandlarimizning sevimli kitoblariga aylangan «Tohir va Zuxra», «Bahrom va SHerzod», «Ozodachehra», «Quyosh erining pahlavoni», «Rustam», «Baliqchi bola», «YOriltosh», «Oygul bilan Baxtiyor», «Oltin bola», «Ayozi», «Sirli gilamcha», «Oqila qiz», «Musofirbek», «Aqlli bola», «SHum bola», «Xasis boy va uning o`g`illari», «Boyning o`g`li» kabi ertaklar va «Alpomish», «Go`ro`g`li», «Intizor», «Orzigul», «Erali va Sherali», «Farhod va SHirin», «SHirin va Shakar», «Oyparcha», «Yodgor», «Nurali», «Murodxon», «Hasanjon», «Gulshanbog`», «Balogardon», «Avazning arazi», «Gulixiromon» kabi juda ko`p dostonlar ham bevosita bolalar ishtirokida yaratilgan pur ma`noli xalq ijodidir. Zero, xalq ijodida farzandli bo`lish, bola va bola tarbiyasi yuksak insoniy ezgu niyat ekanligi, u kishiga quvonch va chuqur ichki ma`naviy kuch

bag` ishlashini ko`rsatuvchi qudratli vositadir. Xalq pedagogikasi materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari ichida: 1) bolalar o`yinlari; 2) choyxo`rlik-choyxona gurungi; 3) bolalar gapi-gap-gashtak; 4) bolalarni kattalar bilan birgalikda: a) to`y marosimlari-beshik to`yi, sunnat to`yi, nikoh to`yi, xovli to`yi b) sayillar-dala sayli, gul barra (binafsha) sayli, qovun sayli, v) yig`in-tomosha, tug`ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi (majlisi), kelin salom-yuz ochish (ro`mol obqochish), uloq (ko`pkar), poyga, kurash, turli usuldagi yarashuvlar (musobaqalar); g)aza ma`rakasi; d)safarga chiqish, ovga borish kabilar haqida bolalarga ma`lumot berish va ana shunday vositalar asosida ma`naviy-axloqiy tarbiyalash katta ahamiyatga ega. CHunki, bolalarning ijobiy yoki salbiy hatti-xarakati ko`pchilikning ko`z o`ngida namoyon bo`ladi va ular tomonidan baholanadi.

Shuning uchun ham "Odobnoma" darslariga har bir sinf kesimida Xalq og`zaki ijodiga keng o`rin berilgan.

Milliy mustaqillik sharoitida oiladagi bola tarbiyasiga bo`lgan e`tibor kuchaydi. CHunki, jamiyat aqlan etuk, ahloqan pok, jismonan baquvvat, ruhan boy avlodni tarbiyalashdan manfaatdor. Bunday avlod, eng avvalo, ma`naviy-ahloqiy jihatdan sog`lom va mustahkam oilada shakllanadi. CHunonchi, oilani rivojlantirish va mustahkamlash uchun qilinadigan g`amho`rlik kelajak avlod taqdiri bilan bog`liqdir. Har qanday jamiyatda ham buyuk davlatning barpo etilishi yoshlar qanday bo`lishlariga, ularning qanday tarbiya olishlariga bog`liq. Taniqli o`zbek pedagogi Abdulla Avloniy «Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najod-yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» deb yozgan edi. «Har millatning saodat davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog`liqdir»-deb fikrini davom ettiradi muallif.

Shunday ekan, oiladagi bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, har qanday jamiyatni oilaga va oilada bola tarbiyasiga bo`lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda- davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarni ota-ona oldidagi mas`uliyatini oshirishdagi roli kuchaydi.

Milliy istiqlol mafkurasining negizida yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash g`oyasi yotadi. Mustaqillik ruhida tarbiyalash yoshlarni milliy g`urur, milliy iftixor, milliy ong va o`z-o`zini anglash, vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirishni taqazo etadi.

istiqlol o`zbek oilasi hayotiga, uning ma`naviy qiyofasiga ijobiy ta`sir etmoqda. CHunonchi, ko`p yillar davomida atayin e`tibor berilmay kelingan oilaviy an`analar qaytadan tiklanmoqda, milliy xususiyatlar takomillasha borib, oilaning milliy qiyofasi ko`zga tashlanmoqda. Oilaviy turmush, sinfiy va siyosiy yondoshishlardan xoli bo`lmoqda. Bularning hammasi mustaqillik sharoitda oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning dialektik birligini ta`minlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat bo`lib qolayotganligini ko`rsatadi.

Ushbu muammoni chuqurroq tushunish uchun oilaning mohiyati, uning ijtimoiy mazmuni va bajarishi kerak bo`lgan vazifa (funktsiya)larga to`xtalib o`tmoq lozim. Falsafa lug` atda oilaga shunday ta`rif beriladi: Oila-jamiyatning er-xotin ittifoqiga hamda qarindosh-urug`chilik aloqalariga asoslangan tashkilot, kichik sotsial guruhlar, ya`ni u er bilan xotin o`rtasidagi, ota-onalar bilan bolalar o`rtasidagi hamda birga turadigan va birgalikda umumiy xo`jalik yuritadigan boshqa qarindosh-urug`lar o`rtasidagi keng ko`lamli va keng qirrali munosabatlarga asoslanadi,-deyilgan. Zero, oila faqat iqtisodiy munosabatlar asosida emas, balki ma`naviy yaqinlik asosida shakllanadi va mustahkamlanib boradi. Bola tarbiyasining asosida oiladagi insoniy munosabatlarning qaror topishi yotadi. Oilaviy munosabatlar-bu turli yoshdagi, turli jinsdagi, turli xarakterdagi kishilar o`rtasidagi, bilish darajasi turlicha bo`lgan va turli mutaxassislikka ega bo`lgan kishilar o`rtasida insoniy munosabatlarni sinab ko`rish va ularni mustakamlash uchun o`ziga xos bir maydondir. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, oilada eng avvalo axloqiy tarbiyaga e`tibor berishadi. «Nima yomon, nima yaxshi», «Odobli bo`l, odobsizlik qilma» degan so`zlar oilada ko`p ishlatiladi. Keyinroq, «Bola sog`lom bo`lsin» degan gaplar qabilida bolani jismonan sog`lom bo`lishi uchun g`amxo`rlik qilisha boshlaydi.

Shaxs eng avvalo, oilada shakllana boshlaydi. Maktabda bolani shaxs sifatida shakllanishi davom etadi. Hamma narsani boshlanishi qiyin, murakkab va ziddiyatli bo`lganidek, u yoki bu shaxsning Kim ekanligini yanglashdagi xususiyatlardan biri unga baho berishdagi asosiy mezon uning o`qishidagi va jamoat ishidagi faolligi bilan bog`liq. Bolaning ma`naviy-axloqiy fazalatlari esa gohida ikkinchi darajali masala sifatida qaraladi. Zero, bolaning o`qishi, jamoa ishida ishtiroki va xulq-atvori, yurish-turishi va hatti-harakati birgalikda olib qaralgandagina bola shaxsga har tamonlama yondashgan bo`ladi.

Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, oilada eng avvalo axloqiy tarbiyaga e`tibor berishadi. «Nima yomon, nima yaxshi», «Odobli bo`l, odobsizlik qilma» degan so`zlar oilada ko`p ishlatiladi. Keyinroq, «Bola sog`lom bo`lsin» degan gaplar qabilida bolani jismonan sog`lom bo`lishi uchun g`amxo`rlik qilisha boshlaydi.

Darslarning samaradorligini oshirish, bolalar bilimlarini aniqlash maqsadida odobnoma fanining dasturida o`quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi bir qator omillar tavsiya etiladi.

Jumladan, odobnoma fani bo`yicha tayyorlangan test savollari o`quv reja va standart dasturi asosida tuzilgan bo`lib, boshlang`ch sinf o`quvchilariga mo`ljallangan.

Dasturdagi test savollari 1-, 2-, 3-, 4-sinf o`quvchilari uchun alohida-alohida ko`rsatilgan.

1-sinf bo`yicha berilgan test savollari bolalar yoshiga mos ravishda oddiy, soda tarzda berilgan. Dasturda kundalik salomlashish odobi, ona Vatanning, oilaning muqaddasligi, tabiatni asrash, ilm va hunar haqida, milliy o`yinlar insondagi yaxshi fazilatlar va yomon illatlar to`g`risidagi o`quvchilarga singdirilgan mavzuga oid test savollari berilgan.

2-sinf o`quvchilari uchun tuzilgan test savollari 1-sinfga nisbatan kengroq olingan. Unda bolaning o`z-o`zini boshqarishi, mehmonnavozlik, milliy urf-odatlar, bayramlar, do`stlashish mavzulariga mos ravishda test savollari tuzilgan.

3-sinf o`quvchilari uchun tuzilgan test savollari 1-2 sinflarga nisbatan o`quvchilarni chuqurroq mulohaza yuritishga undaydi. 3-sinf o`quvchilari

Prezidentimiz haqida, istiqlol, bozor munosabatlari, ona tabiat, tejamkorlik va mehnatsevarlik, orastalik va ehtiyotkorlik rivoyatlar, donolar o`g`itlari, xalq o`yinlariga doir test savollari yuzasidan fikr yuritiladi.

4-sinf uchun berilgan test savollari bir qadar murakkabroq bo`lib, o`quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ko`proq izlanishga undaydi. Vatan tuyg`usi, mahalla tarbiyasi, tabiatga munosabat odobi, muomala- munosabat odobi, turmush munosabatlari odobi, oilaviy munosabatlar odobi, ustoz-murabbiylar odobi, o`tganlarni yod etish, insoniylik yuzasidan berilgan test savollariga javob izlaydilar. Dasturga berilgan test savollari boshlang`ich sinf o`qituvchilari ucun qo`llanma bo`lib, har bir o`qituvchi o`z o`quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda qo`shimcha test savollari tuzib qo`llashlari mumkin.

Dasturda odobnoma fanidan o`quvchilar bilimini reyting orqali baholashning aniq yo`l-yo`riqlari belgilab berilgan. Har bir chorakda o`quvchilar bilimiga qo`yiladigan talablar: og`zaki so`rovlar, uy vazifasidan, donolar bisotidan, o`zligini anglashdan, suhbatdan o`quvchilarning bilim darajasini, tayyorgarligi, qay darajada qabul qilish va qo`llashi, barchasi reyting orqali ballanib borishi ko`rsatib berilgan.

Shuningdek, har chorakdagi joriy nazoratda, oraliq nazoratga, yakuniy nazoratga qo`yiladigan ballarni umumlashtirib baholashga alohida e`tibor berilgan. O`quvchilarni o`zligini anglashga doir sahnalar ko`rsata olishi, hikoya tuzib yozib kelishi, mavzularga oid rasmlar chizishi, albomlar tuzib borishi reyting ballarining samarasi ekanligidan dalolat beradi.

O`tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida 1-4-sinf o`quvchilari bilim, ko`nikma, malakasini aniqlash mezon-me`yorlaridan unumli foydalanish kerak. Shuningdek, bayon yozish, kartochnalardan unumli foydalanish, umumlashtiruvchi ijodiy faoliyat tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligiga guvoh bo`ldik.

Dastur va darslikda bayon etilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida odob-axloqqa doir o`quvchilar tomonidan to`plangan donolar bisotidan mezon-me`yoriga ham alohida e`tibor qaratilgan.

1-sinfda: 9 ta maqol, 2 ta hikmatli soʻz, 2 ta latifa, 2 ta ertak, 2 ta topishmoq, 2 ta qoʻshiq.

2-sinfda 6 ta maqol, 4 ta hikmatli soʻz, 3 ta latifa, 6 ta ertak, 4 ta topishmoq, 2 ta qoʻshiq, 1 ta doston.

3-sinfda: 8-10 ta maqol, 6 ta donolar soʻzi, 4 ta rivoyat, 2 ta doston. 8 ta ertak, 4 ta qoʻshiq, 10 ta xalq oʻyinlari.

4-sinfda: 12-14 ta maqol, 8 ta donolar soʻzi, 6 ta rivoyat, 4 ta doston, 12 ta ertak, 6 ta qoʻshiq, 12 ta xalq oʻyinlari.

1-2- sinflarda bu soʻrovlar orqali aniqlanadi. 3-4- sinflarda kartochka shaklida, bayon yoki kichik hikoya kabi yozma ishlarda oʻz aksini topgan. Oʻquvchilar tomonidan bajarilgan bunday ijodiy faoliyat, ularni izlanuvchanlikka oʻrgatadi.

II. 3. Tajriba-sinov ishlari.

Biz bitiruv malakaviy ishini yozishdan avval maktablarda kuzatish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Bunda biz oʻz eʼtiborimizni asosan, odobnoma darslarining qanday tashkil etilayotganligiga, unda oʻqituvchi va oʻquvchining ishtiroki, faolligi qanday ekanligiga, darsda qoʻyilayotgan maqsad, vazifalar, ularning qay darajada amalga oshirilganligi, darsdan kutilayotgan natijalar, erishilayotgan yutuqlar qanday ekanligiga qaratdik. Shu asosda Yakkasaroy tumani 26-maktabning bshlangʻich sinflarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba – sinov obʼyektini etib ikki sinfni (1^A , 1^B , 2^A , 2^B , 3^A , 3^B , 4^A , 4^B - sinflar ichidan) oldik. Shu sinflardan biriga anʼanaviy usulda, ikkinchisida esa pedagogik texnologiyalar asosida odobnoma dasturini tashkil etdik va natijalarni oʻzaro taqqosladik. Bir xil vaqtda, bir xil yoshdagi oʻquvchilar bilan birgalikda, bir xil mavzuda odobnoma, darslari tashkil etilgan boʻlsada, natijalar, oʻzlashtirish koʻrsatkichlari turlicha boʻldi: pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darslarida oʻquvchilar faolligi va oʻzlashtirish koʻrsatkichlari yuqori boʻldi. Hozir biz 4-“A” – sinfda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darsidan namuna keltiramiz:

Dars mavzusi: Yurt tinchligi.

Darsning maqsadi:

1. O`quvchilarga tinchlik, urush, terrorizm, aqidaparastlik, vatanparvarlik so`zlarining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berish.
2. O`quvchining tinchlikni asrash, vatanni sevish burchi haqidagi tushunchalarni rivojlantirish.
3. O`quvchilarni tinchliksevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Dars usuli: interfaol usullar.

(Guruh ishi, klaster usuli, muloqot, so`zlashuv, yakka tartibdagi ish)

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: Vatman qog`ozi, A-4 qog`ozi, markerlar, kley, rangli qog`ozlar, darsliklar, mavzu asosida ishlangan rasmlar, metoplan kartochkalari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O`quvchilarni darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Uyga berilgan vazifani aniqlash. 3-chorak davomida o`tilgan mavzular yuzasidan bilimlarni mustahkamlash.

- Aziz o`quvchilar, bugungi darsimiz mazkur chorakning oxirgi darsi bo`lganligi sababli, chorak davomida o`tilgan mavzuni eslab o`tamiz vabilimlarimizni mustahkamlaymiz.

- Bunda biz interfaol usullardan foydalanamiz.

Yozuv taxtasidagi vatman qog`ozlarda o`tilgan barcha mavzularimiz ko`rsatilgan. Hozir shu mavzulardan har bir guruh bittasini tanlab oladi va mavzuni yoritib beradi. Mavzuni yoritishda biz metoplan kartochkalaridan foydalanamiz. Metoplan kartochkalariga mavzularning asosiy mazmunini yoritib beruvchi ma'lumotlarni yozasiz.

3. Har bir guruhlardan bir vakl chiqib, mavzu tanlab guruhga qaytadilar.

Topshiriqni bajarishga 10 daqiqa vaqt beriladi.

Guruhlarda ish olib boriladi, guruh ishlari nazorat qilib boriladi.

Vaqt tugagach guruhlar o`z ishlarini taqdimot qiladilar. Masalan:

-Bizning guruhimiz “Temuriylar tarixi Davlat muzeyi” ustida ishladi va quyidagi ma’lumotlarni bildirmoqchimiz.

1. Temuriylar tarixi muzeyi 1996 yil 18-oktabrda ochildi.
2. U Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonining shimoli-g`arbiy tomonida barpo etilgan.
3. Muzey ochilishida prezidentimiz Islom Karimov nutq so`zlaganlar.
4. Muzey uch qavatli, gumbazi moviy rangda.
5. Birinchi qavatda kutubxona, majlislar zali, chiptaxona, ma`muriyat joylashgan.
6. Ikkinchi qavatda qadim zamonlarga borib taqaluvchi eksponatlar joylashgan.
7. Uchinchi qavatda Amir Temur va Temuriylar tarixi bilan bog`liq eksponatlar joylashgan.
8. Muzeydagi eksponatlar Amir Temur zamoni haqida atroflicha ma`lumot beradi.

Berilgan ma’lumotlardan tashqari qo`shimcha ma’lumotlar ham beriladi. Shu tariqa qolgan guruh a’zolari ham o`z ishlarini taqdimot etadilar. Taqdimot natijalari tahlil etib boriladi.

Taqdimotdan so`ng o`tilgan mavzular umumlashtirib xulosa qilinadi.

Adolatparvarlik-vijdon amri

Badnafs bo`lma, shukur qil.

Salomatlik kushandalari.

Istiqlol bergan buyuk ne`matlar

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi

4. Yangi mavzu bayoni.

- Bugun darsligimizdagi “Farovonlik – hayot ko`rki” IX bo`lim mavzulari bilan tanishishni boshlaymiz. Ushbu bo`lim “Yurt tinchligi”, “Millatlararo






totuvlik”, “Oila to`kislighi” mavzularini o`z ichiga oladi. Bu bo`limdan yurt – millat tinchligi, oila totuvligi va to`kislighini anglatuvchi omillar haqidagi bilim va tushunchalarimizni rivojlantirib, kengroq ma`lumotlar olamiz.

- Bugun “Yurt tinchligi” mavzusi bilan bo`limimizni boshlaymiz.

Mavzu yuzasidan ma`lumotlar berildi. Tinchlik, terrorizm, aqidaparastlik, urush va vatanparvarlik tushunchalarining ma`nosi ochib berildi.

- Oldingi darsda ushbu mavzu bilan mustaqil ravishda tanishib chiqishingizni vazifa qilib berilgan edi. Ushbu mavzu bilan qay darajada mustaqil tanishganingizni klaster usulidan foydalanib aniqlab olaman.

Har bir guruhga o`rtasida tinchlik, terrorizm, aqidaparastlik, urush va vatanparvarlik so`zlari yozilgan vatman qog`ozlari beriladi. Bu zo`zlarning mazmun-mohiyatini klaster usulidan foydalanib ochib beradilar va taqdimot qiladilar. Guruh ishi uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimotlar yuzasidan guruhlar fikri tinglanadi.



5. Aziz o`quvchilar, endi lirik chekinish qilamiz. Har bir guruh a`zolari ixtiyoriy ravishda tinchlik haqida she`r, hadis, maqollardan na`munalar keltiradilar va mazmunini tahlil qilib beradilar. Topshiriqni bajarish uchun besh daqiqa vaqt beriladi.

O`quvchilar $\frac{1}{2}$ vatman qog`oziga tinchlik haqidagi maqol, hadis, she`rlarni yozadilar va taqdimot etadilar.

Masalan:

Yomg`ir bilan yer ko`karar, Tinchlik bilan el.

6. Darslikda berilgan Q.Muhammadiyning tinchlik haqidagi she`rini ifodali o`qib, mazmuni tahlil etildi.

7. Yangi mavzu o`quvchilar tomonidan qanday o`zlashtirib olinganligini aniqlash uchun savollar beriladi.


- Tinchlik haqida qanday tushunchaga ega bo`ldingiz?
- Yurt tinchligini buzmoqchi bo`lgan kimsalar haqida nima deya olasiz?

8. *Darsni yakunlash.*


- Aziz o`quvchilar, bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Bugungi darsdan qanday bilim va malakalar, tarbiya olganingizni mana bu gul yaproqlariga yozib berasiz. Siz bilan bilim va tarbiya gulini hosil qilamiz.

O`quvchilarga gul yaproqlari tarqatiladi. Unga o`quvchilar bugungi darsda qanday bilim, tarbiya olganliklari haqida fikrlarini izhor qilib yozadilar. Bunda har bir o`quvchi individual ishlaydi.

BILIM



TARBIYA



10. Guruhlarni va liderlarni baholash.

11. Uyga vazifa berish.

“Yurt tinchligi” mavzusiga oid qo`shimcha ma`lumotlar to`plash.

Yana bir 3-“B” – sinfda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darsidan namuna keltiramiz:

Mavzu: Vatan tuyg’usi, milliy g’urur va iftixor

bilan yashagan bobolar.

Maqsad:

Vatan nima? Tushuntirish. Vatan tuyg’usi, milliy g’urur va iftixor haqida tushuncha berish. Vuyuk bobokalonlarimiz bilan tanishtirish.

Vatanni sevish va asrash ruhida tarbiyalash.

Dars turi: Interfaol.

Usuli: Suhbat, klaster.

Ko’rgazma:

- 1) Vatanimiz manzarasi tasvirlangan rasmlar.
- 2) Bobokalonimiz A.Navoiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa rasmlar.
- 3) Kostitusiya kitobi. Prezident I.A.Karimov rasmi.
- 4) Qog’oz va flamaster.

Darsning borishi.

1) Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash, dars maqsadini tushuntirish.

2) Dars mavzusini bayon qilish.

- Bolalar bugun biz 3 guruhga bo’linib interfaol usulda dars o’tamiz. Darsimizning mavzusi “Vatan tuyg’usi, milliy g’urur va iftixor bilan yashiyotgan bobolarimiz” haqida suhbatlashamiz.

1 guruh – Vatan nima?

2 guruh – Vatan tuyg’usi, milliy g’urur nima?

3 guruh – Bizning iftixorimiz bo’lgan bobokalonlarimiz haqida o’z fikrlarini bildiradilar. Guruhlarga qog’oz, qalam beraman, ular klaster usulida o’z fikrlarini chizib, so’ng tushuntirib beradilar.

Bunda o'quvchilar guruhlar ishida o'zaro fikr almashadilar, bilimlarini jamlab, mustaqil fikrlarini bayon qila oladilar.

- O'quvchilar ma'lum vaqt ichida o'z mavzulari bo'yicha fikrlar to'plab, taqdimotga chiqadilar.

1 – guruh. Vatan – bu O'zbekistonim, kindik qonim to'kilgan joy, oilam, o'bek to'ylari, nahorgi oshlar, beshikda yotish, atlas, do'ppi kiygan vatandoshlar, gerbimizdagi paxta, bug'doy, tog', bog'lar haqida gapirib berdilar.

2 – guruh. Vatan tuyg'usi, milliy g'urur haqida gapirdilar. Men tirikligim bilan, o'zbekligim bilan g'ururlanaman. Vatanimni sevaman, ota-onamni, oilamni, maktabimni sevaman, armiyaga borib hizmat qilish, dushmanlardan asrash, dunyoga tanitish, go'zal shaharlarimiz, buyuk olimlarimiz borligi bilan g'ururlanishlarini aytdilar.

3 – guruh. “Bizning iftixorimiz bobokalonlarimiz” bilan tanishdilar.

A.Navoiy – shoir, Ibn Sino – tabib, A.Temur – sohibqiron, xarbiy sarkarda. Olimlar, me'morlar, rassomlar o'z asarlari bilan o'chmas iz qoldirganliklari, o'zbek tili, o'zbek millatini dunyoga tanitganlari bilan faxrlanishlari va ularga o'xshab yashashga harakat qilishlari haqida gapirdilar.

Dars so'ngida bolalar fikrlarini umumlashtirib, darsni yakunladim.

- Bolalar Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Konstitusiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan majlisida “Vatan tuyg'usi” haqida gapirib, “Har bir o'zbek farzandi o'z uyini, o'z vatanini sevishi, ardoqlashi va asrashi haqida” yana gapirib o'tdilar. O'zbek xalqi A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir kabi vatan ozodligi, erki yo'lida kurashib, qurbon bo'lganlar vatandoshlarini hech qachon unutmaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z hayotini vatan, xalq, millat taraqqiyotiga bag'ishlagan ko'plab vatandoshlarimiz xotirasini yod etib, ularni “Buyuk xizmatlari uchun ordeni” bilan mukofotladi. Inson uchun Vatandagi hamma narsa: xalqi, yeri, tarixi, ertangi kuni ham aziz bo'lishi kerak.

- Aziz bolajonlar siz ham Vatanimizni asl farzandlari bo'lib, aqlli, odobli, bilimli bo'lishga, Vatanni sevishga, ardoqlashga o'rganing.

Dars so'ngida aktiv qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

3-“V” sinfida o'tkazilgan odobnoma darsini keltiramiz.

Dars mavzusi: “Men kim bo'lmoqchiman?”

Darsning maqsadi: Dunyoda turli xil kasb-hunar borligi, “kasb” va “hunar” tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi alohida tushunchalar ekanligi, har bir inson o'zi sevgan biror kasb yoki hunar bilan shug'ullanishi zarurligi haqida yangi bilimlar berish va bu orqali o'quvchilarda kasb-hunarga mehr-muhabbat uyg'otish, boshqalar mehnatini hurmat qilishga o'rgatish.

Dars jihozi: Kasb-hunarga oid maqollar yozilgan plakatlari, turli kasb egalari ish-faoliyati tasvirlangan rasm, “Mening fikrim” konvertchalari, “Orzular daraxti” ko'rgazmali quroli, xattaxta, darslik.

Dars metodi: Suhbat-munozara.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Darsning borishi: O'qituvchi darsni quyidagi maqollarni o'qish bilan boshlaydi:
Ilm ol, hunar tanla.

Hunar - hunardan unar.

Hunar - tunganmas boylik.

Hunarli kishi xor bo'lmas.

Hunarsiz kishining,


Mazasi yo'q ishining.

Bolajonlar! Bugun biz kasb-hunar haqida gaplashmiz. Biz barchamiz katta bo'lganda qaysidir kasb egasi bo'lishni xohlaymiz, hozirdanoq “Kim bo'lsam ekan?!”, - deb o'ylaymiz. Qani bolalar navbat bilan ayting-chi, Siz katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?

- O'qituvchi
- Tikuvchi
- Haydovchi
- Quruvchi

- Shifokor . . .

(O`quvchilar navbat bilan birin-ketin javob berishadi, o`qituvchi javoblarni tinglab, kasb va hunar nomlarini “orzular daraxtiga yozadi”)



- Ha, bolajonlar, dunyoda kasb-hunarlar xilma-xildir. Ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga, qiyinchiliklarga ega. Endi biz shu kasb-hunarlar haqida yangi ma`lumotlar olamiz. (O`qituvchi darslik asosida mavzuni tushuntiradi).

- Bolajonlar, endi biz kasb va hunar bir-birini to'ldiruvchi ikki tushuncha ekanini, kasb-hunar qanday egallasnishi haqida bilimlarga ega bo'ldik...

(O'qituvchi o'quvchilar bilimni sinash maqsadida ularni ikki guruhga bo'ladi. Ularni "Quruvchilar" va "Hunarmandlar" deb nomlaydi).

- Bolajonlar, endi "quruvchilar" jamoasi faqat kasb nomlarini, "Hunarmandlar" jamoasi esa hunar nomlarini yozsin. (O'quvchilar Navbat bilan xattaxtada topshiriqni bajaradilar. Shundan so'ng o'qituvchi topshiriq to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini tekshiradi va xatolar bo'lsa uni topishni o'quvchilarning o'ziga topishiradi. So'ngra jamoa sardorlari o'zlari yozgan kasb yoki hunardan bittasini ta'riflab beradi).

- Bolalar, biz ko'plab kasb-hunarlar borligini bildik, ular haqida tushunchalarga ega bo'ldik va har birimiz biror kasb-hunar egasi bo'lishni xohladik. Ayting-chi, biz o'zimiz orzu qilgan kasb egasi bo'lishimiz, biror hunar egasi bo'lishimiz uchun hozirdanoq qanday ishlarni amalga oshirishimiz mumkin? (O'qituvchi o'quvchilarga "mening fikrim" kartochkalarini tarqatadi, o'quvchilar esa unga o'z ism-familiyasini va javoblarini yozishadi. O'qituvchi o'quvchilarning javoblari bilan birma-bir tanishadi va eng to'g'ri, muhim bo'lgan javoblarni xattaxtada yozadi, o'quvchilar fikrini unumlashtiradi)

- a'lo o'qish;
- ko'p kitoblar o'qish;
- odobli bo'lish;
- bo'sh vaqtdan unumli foydalanish;
- mehnatga ko'ngil qo'yish;
- hunar o'rganish...

Barakalla, juda to'g'ri, buning uchun biz, eng avvalo, odobi bo'lishimiz, a'lo baholarga o'qishimiz darkor...

(Shundan so'ng o'qituvchi barcha uyda "Men kim bo'lmoqchiman" mavzusini o'qib o'rganishi va har bir o'quvchi o'z ota-onasi kasbi (hunari) haqida yangi ma'lumotlar o'rganib kelishi topshiriladi. O'quvchilar darsdagi faolligi, "mening fikrim" kartochkalaridagi javobiga qarab baholanadilar).

Biz odobnoma darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etib, quyidagi natijalarga erishdik:

- o`quvchilar hamkorlikda ishlaydi;
- fikrlar, go`yalar almashinuvi jarayoni sodir bo`ladi;
- o`quvchilarda bilimlarini o`zlashtirishga bo`lgan xohish, qiziqish ortadi;
- o`qituvchi+ o`quvchi, o`quvchi+o`quvchi, o`quvchi+o`quvchilar, o`quvchi+o`qituvchi, o`quvchilar+ o`quvchilar (jamoalar) muloqoti yuzaga keladi;
- erkin ijodiy muhit yaratiladi;
- o`quvchilar faolligi ortadi;
- o`quvchilarning ham yozma, ham og`zaki nutqi rivojlanadi;
- jamoa bo`lib ishlashga o`rgatiladi;
- bilimlarni o`zlashtirish kafolatlanadi.

Boshlang`ich sinflarda olib borilgan noan`anaviy odobnoma darslarida interfaol usullarining qo`llanishi tahmin qilindi. O`quvchilarning dastlabki bilim darajasi o`rganilib tahlil qilindi (anketa savollari ilova qilingan)va quyidagi natijalar aniqlandi.

Sinfda jami o`quvchilar soni - 35 ta.

Shundan:

5 ta o`quvchining bilim darajasi 0%-55% gacha 16 ta o`quvchi mavzuni o`zlashtirish darajasi 56% – 70 % gacha ekanligi 10 ta o`quvchi 71% – 85 % gacha, 4 ta o`quvchi 86% – 100 % oralig`ida o`zlashtirishi aniqlandi. Olib borilgan pedagogik tadqiqot natijasiga ko`ra (noan`anaviy darslarda interfaol metodlarining qo`llanishi natijasida) 5 ta o`quvchi o`rtacha 56% – 70 % foizgacha, 22 ta `quvchi yaxshi 71% – 85% foizgacha, 8 ta o`quvchining o`zlashtirish darajasi 86% – 100 % foizgacha o`zlashtirilganligi aniqlandi. (o`quvchilar ro`yxati va o`zlashtirish bo`yicha olgan ballari ilova qilingan).

Tajriba – sinovgacha bilim darajasi.

1 – jadval

O'quvchi soni	1 – savol	2 – savol	3 – savol	4 – savol	5 – savol	ball
5	10	12	8	10	12	52 ball
16	12	14	14	12	14	66 ball
10	14	16	18	18	18	84 ball
4	18	20	16	20	18	92 ball

Tajriba – sinovdan so'ng bilim darajasi.

2- jadval

O'quvchi soni	1 – savol	2 – savol	3 – savol	4 – savol	5 – savol	ball
5	14	16	12	12	14	68 ball
22	14	16	16	18	16	80 ball
8	20	20	18	20	20	98 ball

Xulosa qilganda tajriba – sinov boshida olingan natijalar noan'anaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish hisobiga samaradorlik o'sganligidan dalolat beradi.

II Bob xulosasi

Yuqoridagilarga muvofiq xulosa sifatida pedagogik texnologiyani boshlang'ich sinf odobnoma darslarida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

1. O'quvchi o'qitilmaydi, u mustaqil o'qishga o'rgatiladi. Buning uchun o'quvchini mustaqil ravishda o'quv materialini tahlil qilib o'zlashtirishga, fikrlashga, mulohaza yuritib, shaxsiy xulosalarga kelishga o'rgatib boriladi.

2. O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmaydi. Uni bilimlarni manbalardan o'qituvchi ko'magida mustaqil ravishda olishga o'rgatiladi. Bunda o'quvchining, avvalo darslik bilan, so'ngra o'qituvchi tavsiya etgan (yoshi, xususiyatlarini hisobga olgan holda) mustaqil adabiyotlardan mustaqil foydalanishga, o'quvchuning o'rgatganlarini kengaytirib borishga o'rgatiladi.

3. Barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirishi uning o'rgangan bilimlaridan hayotga amaliy faoliyatga olish ko'nikma va malakalari darajasi bilan belgilanadi.

4. Barcha o'qituvchilar pedtexnologiya mexanizmini o'rganib olsalar, deyarli bir xil natija olishga erishadilar. Pedagogik texnologiya mexanizmi- uni amalga oshirish va samarali qo'llash uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalarni egallash, zarur shart-sharoit yaratish, zamonaviy o'quv vositalari, darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlash hamda o'qituvchilarning darsda faol ishtirok etishlari uchun zarur barcha tayyorgarliklarni amalga oshirish, darsda ularning barcha imkoniyatlarini hisobga olgan holga eng maqsadga muvofiq texnologiyalarni to'g'ri tanlash va qo'llashni nazarda tutadi. Mana shunday vaziyatni yuzaga keltirish, uni samarali amalga oshirish orqali biz asosiy maqsadimizga erishamiz. Bu maqsadimiz nimalardan iborat?

- O'quvchilarning faolligini oshirish uni hamkorlikka chaqirish;
- O'quv rejada ko'zda tutilgan dasturlar, qo'llanmalar, ma'ruza matnlari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;

- Talim mazmunini, matnlarni mustaqil mutolaa qilish ko`nikma, malakalarini shakllantirish;
- O`quvchilar o`z fikrini bildira olish, himoya qilish, isbotlay olishga odatlantirish.

Xulosa shuki, o`quv jarayoni samaradorligini, kafolatini ta`minlashning yagona yo`li ta`lim oluvchining shaxsiy faolligiga erishishdir.

Bunga erishish ta`lim-tarbiya jarayonida, xususan, boshlang`ich sinf odobnoma darslariga, pedagogik texnologiyalarni samarali qo`llash orqali amalga oshiradi, ya`ni o`quvchi o`qitilmaydi, balki mustaqil o`qishga o`rgatiladi. O`quvchining bilim olishga nisbatan xohishi, faolligi oshadi.

Umumiy xulosa

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayoti zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko`tarish, unga ilg`or texnologiyalarini joriy qilish, ta`limning samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tariladi.

Ma`lumki, uzluksizlik va uzviylik ta`lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo`yib, avvalo jamiyatning ma`naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta`minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv-tarbiya jarayoniga kelishi ta`lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda mana shu pedagogik texnologiyaning ta`lim jarayoning, xususan odobnoma darslariga tadbiiq etishi, usallari, ko`rinishlari, vositalari qanday ekanligi bilan qiziqdik. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar odobnoma darslarida qay tarzda qo`llanilayotgani, pedagogik texnologiyalarni pedagogik jarayoniga tadbiiq etishda qanday kamchiliklarga yo`l

qo'yilayotgani, pedagogik texnologiyalarni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darslari, erishilayotgan yutuqlar, kutilayotgan natijalar qanday ekanligiga to'xtaldik.

Bitiruv tadqiqot ishlarimizning birinchi bobi Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari deb nomlanib, unda pedagogik texnologiyaning nima ekanligi, pedagogik texnologiya haqida olimlarning fikri, qarashlari, tadbiqiy asoslari, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash muammolari xususida to'xtaldik.

Ikkinchi bobni Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida interfaol metodlarini qo'llanishning shakllari deb nomladik va unda odobnoma darslarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishining afzalliklari, kamchiliklari, shakllari haqida to'xtalib o'tdik. Bunda asosan, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslardan namunalar keltirdik, tahlil etdik.

Xulosa qilib aytish mumkinki; boshlang'ich sinf odobnoma darslari pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o'quvchi-o'qituvchi munosabati o'rnatiladi, qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik chekinadi, o'quvchi uchun tenglik, erkinlik vaziyati tug'iladi. O'quvchining o'z kuchi, imkoniyatini ochishga sharoit yaratib, ochilmagan qirralari ochiladi, o'qishga havas ortadi.

Kichik bo'lsada, o'quvchining olg'orlik sari qo'yilgan har bir qadami yutuq deb qaralsa, u o'quvchini yangilik sari yetaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, faolligini oshiradi. Ana shunda bizning asosiy maqsadimiz-bilimlarning mustahkam va puxta o'zlashtirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

- 1.** I.A. Karimov “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “Ma`naviyat” 2008 y.
- 2.** I.A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”
- 3.** I.A. Karimov “mamakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir” Toshkent “O`zbekiston” 2007 yil
- 4.** I.A. Karimov “Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug` maqsad yo`q” Toshkent “O`zbekiston” 2001 y.
- 5.** “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun
- 6.** R.A. Mavlonova M. Arabova, G`. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” Toshkent. O`zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008 y.
- 7.** J.G`.Yo`ldoshev, F.Yo`ldosheva, G.Yo`ldosheva “Interfaol ta`lim sifat kafolati” (Bolaga do`stona munosabatdagi ta`lim) Toshkent-2008 y.
- 8.** Ishmuhamedov R. , Abduqodirov A., Pardaev A., “Ta`limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent “Iste`dod jamga`ramasi” 2008 yil.
- 9.** Y.G`. Yo`ldoshev “Ta`lim menejmenti” Toshkent 2006
- 10.** N.N. Aizixo`jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti. 2006 yil
- 11.** O. Hasanboyeva “Odobnoma” 1-sinf “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2007
- 12.** O. Hasanboyeva, A. Ne`matova, M. Turopova “Odobnoma” 3-sinf Toshkent “Oz`bekiston”. 2007 yil.
- 13.** O. Hasanboyeva, A. Ne`matova, G. Ibragimova “Odobnoma” 4-sinf 6-nashri “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2007 yil.
- 14.** Q. Abdullayeva, M. Yusupova, S. Rahmonbekova “Odobnoma” 2-sinf. Toshkent “O`zbekiston”. 2007 yil.

- 15.** R.A. Mavlonova, M. Arabova “Pedagogik texnologiya” (metodik qo`llanma) Nizomoy nomli TDPU. Toshkent. 2008 yil.
- 16.** Xalq ta`limi ilmiy- metodik jurnal. 2008 yil. 5-son
- 17.** O`.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva “Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari” O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. T. N. Qori Nizomiy nomidagi O`zbekiston PFITI, 2006 yil

Magistrlik ishiga ilova.

O`quvchilari bilan olib borilgan tajriba- sinov anketa savolnomasi.

Shahar (tuman) Toshkent shahar Mirobod tumani – maktab

Maktab N 154 **Sinf** 4-“A”

O`qituvchining familiyasi va ismi So`fibekova Mamlakat

Savollar:

- 1. Salomlashish odobi deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Aqudaparastlik deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Kasb-hunar nima uchun tanlanadi?*
- 4. Terrorizm deganda nimani ko`z oldingizga keltirasiz?*
- 5. Qanday bola ota-onaning munosib farzandi bo`la oladi?*

Sinf o`quvchilari ro`yxati

Tajriba-sinov o`tkazishdan oldin

N	O`quvchilar I.Sh	1-savol (20 B)	2-savol (20 B)	3-savol (20 B)	4-savol (20 B)	5-savol (20 B)	Ja`mi
1	Ayupova M	12	14	14	12	14	66
2	Abidova X	14	16	18	18	18	84
3	Alomova N	18	20	16	20	18	92
4	Abdullayeva Z	12	14	14	12	14	66
5	Abduholiyeva D	12	14	14	12	14	66
6	Agzamxodjayev J	10	12	8	10	12	52
7	Bekmuhamedova M	14	16	18	18	18	84
8	Jo`raboyeva D	18	20	16	20	18	92
9	Komilov J	12	14	14	12	14	66
10	Karimova M	14	16	18	18	18	84
11	Ismailova A	18	20	16	20	18	92
12	Mirzaabdullayev B	12	14	14	12	14	66
13	Mirabitova U	10	12	8	10	12	52
14	Mirahmedov T	14	16	18	18	18	84
15	Maripova M	14	16	18	18	18	84
16	Muhitdinova D	12	14	14	12	14	66
17	Mamatvosiyeva M	12	14	14	12	14	66
18	Nuraliyeva A	14	16	18	18	18	84
19	Otanazarov Sh	10	12	8	10	12	52
20	Otanazarov J	12	14	14	12	14	66
21	Odilova O`	12	14	14	12	14	66
22	Qosimboyeva S	18	20	16	20	18	92
23	Radjabov U	12	14	14	12	14	66
24	Radjabov A	12	14	14	12	14	66
25	Sagdullayeva S	14	16	18	18	18	84
26	Saidova D	12	14	14	12	14	66
27	Sultonov J	12	14	14	12	14	66
28	Saidrasulov J	14	16	18	18	18	84
29	Toxirova Sh	10	12	8	10	12	52
30	Turdaliyeva N	14	16	18	18	18	84
31	Tojiyeva X	12	14	14	12	14	66
32	Tadjibayeva M	14	16	18	18	18	84
33	Hasanova B	12	14	14	12	14	66
34	Hasanova Sh	10	12	8	10	12	52
35	Xudoyberdiyeva B	12	14	14	12	14	66

Sinf o`quvchilari ro`yxati

Tajriba-sinov o`tkazilgandan so`ng

N	O`quvchilar I.Sh	1-savol (20 B)	2-savol (20 B)	3-savol (20 B)	4-savol (20 B)	5-savol (20 B)	Ja`mi
1	Ayupova M	14	16	16	18	16	80
2	Abidova X	14	16	16	18	16	80
3	Alomova N	20	20	18	20	20	98
4	Abdullayeva Z	14	16	16	18	16	80
5	Abduholiyeva D	14	16	16	18	16	80
6	Agzamxodjayev J	14	16	12	12	14	68
7	Bekmuhamedova M	14	16	16	18	16	80
8	Jo`raboyeva D	20	20	18	20	20	98
9	Komilov J	14	16	16	18	16	80
10	Karimova M	20	20	18	20	20	98
11	Ismailova A	20	20	18	20	20	98
12	Mirzaabdullayev B	14	16	16	18	16	80
13	Mirabitova U	14	16	12	12	14	68
14	Mirahmedov T	14	16	16	18	16	80
15	Maripova M	14	16	16	18	16	80
16	Muhitdinova D	14	16	16	18	16	80
17	Mamatvosiyeva M	14	16	16	18	16	80
18	Nuraliyeva A	14	16	16	18	16	80
19	Otanazarov Sh	14	16	12	12	14	68
20	Otanazarov J	14	16	16	18	16	80
21	Odilova O`	14	16	16	18	16	80
22	Qosimboyeva S	20	20	18	20	20	98
23	Radjabov U	14	16	16	18	16	80
24	Radjabov A	14	16	16	18	16	80
25	Sagdullayeva S	20	20	18	20	20	98
26	Saidova D	14	16	16	18	16	80
27	Sultonov J	14	16	16	18	16	80
28	Saidrasulov J	20	20	18	20	20	98
29	Toxirova Sh	14	16	12	12	14	68
30	Turdaliyeva N	20	20	18	20	20	98
31	Tojiyeva X	14	16	16	18	16	80
32	Tadjibayeva M	14	16	16	18	16	80
33	Hasanova B	14	16	16	18	16	80
34	Hasanova Sh	14	16	12	12	14	68
35	Xudoyberdiyeva B	14	16	16	18	16	80